

Muallif:	M.Boboev
Yaratilgan:	Angren 2005 yil
Kategoriya:	Ta'lim
Bo`lim:	O`zbek tili va adbiyoti
Universitet:	Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti
Fakul'tet:	Filologiya
Kafedra:	«O`zbek adabiyoti va o`qitish metodikasi»
Elektron fayl turi:	
Elektron fayl hajmi:	

### Annotatsiya

Ma’ruza matnlari «O’zbek xalq ijodi» predmetidan tuzilgan bo`lib, unda xalq og`zaki ijodining mazmun va mohiyati, taraqqiyot bosqichlarib xalq baxshilari xaqida ma’lumotlar berilgan. Ma’ruza matnlari baklavr ta’lim oluvchi talabalarga mo’ljallangan.

### Mundarija

- 1 Xalq og`zaki poetik ijodining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 2 O`rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi og`zaki yodgorliklari
- 3 O`zbek xalqi og`zaki ijodining janrlari
- 4 Alisher Navoiy va fol’klor
- 5 O`zbek xalqi og`zaki ijodining taraqqiyot bosqichlari
- 6 Fozil Yo`ldosh o`g`li, Ergash Jumanbulbul o`g`li
- 7 Muhammadqul Komrot o`g`li Po`lkan, Islom shoir Nazar o`gli

«O'zbek halq og`zaki ijodi» fanidan ma'ruza matnlari Toshkent viloyat davlat pedagogika institutining ilmiy Kengashida yig`ilishida nashr etish uchun tavisya etilgan.

(№5 Qaror, 25 dekabr 2003 yil)

t\rl	Ma'ruza matnlari	Soat	Xajmi
1	Xalq og`zaki poetik ijodining predmeti, maqsad va vazifalari.	2	5-bet
2	O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi og`zaki yodgorliklari	2	8-bet
3	O'zbek xalqi og`zaki ijodining janrlari	8	4-bet
4	Alisher Navoiy va fol'klor	1	4-bet
5	O'zbek xalqi og`zaki ijodining taraqqiyot bosqichlari	3	10-bet
6	Fozil Yo`ldosh o`g`li, Ergash Jumanbulbul o`g`li	2	7-bet
7	Muhammadqul Komrot o`g`li Po`lkan, Islom shoir Nazar o`gli	2	8-bet

**MAVZU: *KIRISH. O'ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, PREDMETI, O`RGANISH OB'EKTI***

***REJA:***

1. Fol'klor tushunchasining mohiyati.
2. O`ziga xos xususiyatlari: kollektivlik, og`zakilik, varinatlilik, anonimlik, an'anaviylik.
3. Fol'klor xalq tarixining badiiy in'ikosi sifatida
4. Fol'klorshunoslik fanining mohiyati, rivoji.

***ADABIYOTLAR:***

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo`sag`asida» xavfsizlikka tahdid, barqarorlik va taraqqiyot kafolatlari» «O'zbekiston» 1997, 137 b.
2. Imomov I.I., Mirzaev V.B. O'zbek xalq og`zaki poetik ijodi. T. 1990 y.

3. Gusev E. «Estetika fol'klora». L.1967y

4. Anikin V.P. Kruglov Yu.G. «Russkoe narodnoe poeticheskoe tvorchestvo» L.1983 y

### ***XALQ OG`ZAKI IJODINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.***

O`zbek xalqining eng qadimgi davrdan shu kunga qadar etib kelgan madaniy meroslaridan biri xalq og`zaki badiiy ijodidir. Ilmiy adabiyotda qo`llanadigan halq og`zaki badiiy ijodi yoki fol'klor termini xalqning uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan og`zaki badiiy ijod namunalarini o`z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotga birinchi marta 1846 yilda Vil'yam Tomson tomonidan kiritilgan fol'klor termini inglizcha ikki so`zdan - «fol'k» ( ) «lor» ( ) dan iborat bo`lib, xalq donishmandligi donoligi kabi ma`nolarni anglatadi.

Oktyabr' to`ntarilishiga qadar bu soha «xalq poeziyasi», «el adabiyoti» inqilobdan so`ng esa «fol'klor», «xalq og`zaki ijodi» kabi nomlar bilan atalib kelindi. Hozirgi vaqtida «O`zbek xalq og`zaki badiiy ijodi» yoki «O`zbek fol'klori» deb atalganki, bu termin mazkur kursning mazmuni, maqsad vazifalarni to`la to`kis ifodalaydi.

Xalq og`zaki ijodi-fol'klor xalq tomonidan asrlar o`tib, rivojlanib, uzluksiz davom etib kelayotgan kollektiv ijodidir. U xalqning ijtimoiy hayotini, tarixini, kurash yo`lini yorqin ifodalaydi. Haqiqatdan ham halq og`zaki badiiy ijodi xalq tarixinining badiiy in'ikosidir. Chunki, fol'klor asarlarda ijodkor xalqning ko`p asrlik tarixi, turmush tajribasi, tabiat hodisalariga munosabati, ijtimoiy hodisalarga qarashi badiiy ifodalangan.

Fol'klor dialektologiya, tarix, etnografiya, arxeologiya bilan uzviy bog`liq.

«O`zbek xalq og`zaki ijodi» kursi xalqimiz orasida uzoq asrlardan beri uzluksiz davom etib kelayotgan og`zaki badiiy ijodini o`rganish, tahlil qilish bilan shug`ullanadi; xalq baxshilari ijodini; ular yaratgan asarlarni g`oyaviy badiiy xususiyatlarni; obrazlar sistemasi, badiiy tasvir vositalari, fol'klordagi traditsiya va novatorlik problemalarini, fol'klorning yozma adabiyotga ta`sirini o`rganadi.

Badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati inson hayotini badiiy formada obrazli aks ettirishdir. Fol'klor ham badiiy adabiyotning ajralmas uzviy qismi sifatida xalqning uzoq asrlik turmushini, kurash va intilishlarni badiiy ifodalaydi. Biroq fol'klorning, yozma adabiyotdan farqlovchi o`ziga xos spetsifik xususiyatlari mavjud. Ular asosan quyidagilar: kollektivlik, og`zakilik, anonimlik, varinatlilik, an'anavilik.

**KOLLEKTIVLIK.** Fol'klor asarlari uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan ijodiy protsessning mahsulidir. Og`zaki badiiy ijod asarlarning takomili va sayqallanishiga kollektivning ijodkorlik roli kattadir.

Fol'klor asarlari xalq o`rtasida so`z san`atkori tomonidan ijod qilingan. Ammo ularning ijod jarayoni xalq (kollektiv) bilan chambarchas bog`liq bo`lganligi sababli yaratgan asarlari kollektiv ijodiga aylanib ketgan. Ikkinchidan, har bir so`z san`atkori fol'klor asarlari o`zicha o`zgartirishlar, qo`shimchalar

kiritavergan. Fol'klor asarlariga kollektiv hissasining qo'shila borishi oqibatida u kollektiv ijod mahsuli bo`lib qoladi.

Fol'klor asarlari improvisatsiya yo`li bilan badiha tarzida yaratiladi, og`izdan og`izga ko`chib yuradi, tarqaladi. Badiha maxsus tayyorgarliksiz, birdan aytilgan so`z, she'r, ekspromt, xalq og`zaki ijodi namunalari: xalq qo'shiqlari, laparlar ko`rincha badixa yo`li bilan yaratiladi. Xalq baxshilarining xozirjavoblik bilan qiladigan aytishuvlari improvizatorlik namunasidir. Fol'klordagi bu xususiyat og`zakilikdir.

**ANONIMLIK.** Fol'klor asarlariga xos xususiyatlardan biridir. Xalq og`zaki ijodi asarlari uzoq asrlar mahusuli bo`lib, ularning dastlabki ijodkori, ijrochisi noma'lumdir. Chunki, fol'klor asarlari og`zaki tarzda yaratilgani uchun ham uning dastlabki ijodkori unutilib ketilaveradi.

Og`zaki ijod protsessida va kollektivning fol'klor asari syujetiga, mazmuniga erkin munosabatda bo`lish natijasida bu asarning ko`plab variantlari maydonga keladi. Fol'klor asarlarining Varinatlilik xususiyatilari bu asarlarning uzoq asrlar mobaynida saqlanib qolshiga sabab bo`ladi. Chunki bu xil syujetni turli joylarda turli baxshilar o`zicha ijro etadi. Har bir ijrochi fol'klor asarlarining u yoki bu varintiga erkin munosabatda bo`ladi, asar mazmuni o`z zamonasi talablariga yaqinlashtiradi. Oqibatda fol'klorda bir xil syujetda o`nlab, hatto yuzlab varintlar paydo bo`lishi mumkin. Varinatlilik xususiyatini «Alpomish» dostoni mislida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Bu doston asrlar davomida professional va havaskor ijrochilar tomonidan qo'llanib keladi.

Demak, fol'klor asarlari kollektiv ijod mahsuli; u og`izdan - og`izga, avloddan-avlodga o`tadi, uning yangidan yangi variantlari yaratiladi, har bir ijrochi o`z qo`yilayotgan fol'klor asariga ijodiy munosabatda bo`ladi, asar kompozitsiyasiga turli xarakterdagi o`zgartirishlar kiritadi, syujetni yangi-yangi obrazlar, tasviriy vositalar, voqealar bilan to`ldiradi, o`ziga ma'qul bo`lmagan obrazlarni, voqealarni, tasviriy vositlarni to`g`ridan-to`g`ri tushirib qoldiraveradi. Fol'klor asarlari syjeti va kompozitsiyasiga kiritilgan yangi obrazlar, voqealar, ifoda-tasvir vositalari o`ziga xos qatlamni tashkil etadi.

Fol'klor asarlariga xos belgilardan yana biri an'anaviylikdir. Fol'klor asarlariga xalq jonli tilli elementlari, ijro etilayotgan joyning sheva xususiyatlari saqlanib qoladi. Xalq og`zaki ijodi asarlarining ko`pchiligiga xos bo`lgan xususiyat ularning kompozitsion qurilishidagi ayrim trafaret jumlalarning, bir xil qolipga tushgan misralarning («bir» bor ekan, bir yo`q ekan», «qirg`iy degan qush o`ltirar qiyoda»... kabi), asardan asarga ko`chib yuradigan obrazlarning (dev, ajina, afandi, yalmog`iz kabi) ko`p uchrashidir.

Traditsion fol'klor asarlarda turli davrdagi ijtimoiy hodisalar, siyosiy voqealar, sotsial guruxlarning xususiyatlari ham saqlanib qoladi. Chunonchi, XIV-XV asarlarda yaratilgan ertak, afandi, latifalarda Alisher Navoiy, Amir Temur, Xo`ja Ahror obrazlari gavdalantirilganidek, Ulug` vatan urushi yillarida yaratilgan fol'klor asarlarida sovet xalqining fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi o`z badiiy ifodasini topgan.

Xalq og`zaki ijodi asarlarida xalq fantaziyasiga keng o`rin berilib, unda badiiy yudirmalar, qahramonlarni ideallashtirish, turli-tuman sehrli mo`jizalar tasvirida

umumbashariy fikrlar-po`stlik, vatanparvarlik, xalq ozodligi, yurt obodonchiligi, mehnat tajribalari, sevgi va muxabbat, dushmanga, zolimga nafrat aks ettiriladi.

Fol'klor xalq san'atining muzika, o`yin, raqs kabi turlari bilan uzviy bog`liqligi sababli dastlabki davrlarda sinkretik xususiyatga ega bo`lib, ijro etilganda unda o`yin, muzika, artistlik mahorati qo`shilib ketgan.O`zbek fol'klori eng qadimgi va boy tarixga egayu uning doston , ertak, qo`shiq, maqol, topishmoq, maqol, askiya, xalq og`zaki dramasi, afsona, latifa kabi xilma-xil janrlarni kategoriya sifatida rivojlanib keldi. Fol'klor asarlari odatda faqat uni yaratgan xalq orasidagina tarqalmaydi, balki qo`shni xalqlar o`rtasida ham tarqaladi. Masalan, «Alpomish» dostoni faqat o`zbeklar orasidagina emas, balik turkman, ozarbayjon, tojik va qoraqalpoqlar orasida ham mashhurdir. Afandi obrazi esa Sharq halqlari fol'klorida keng tarqalgan.

O`zbek fol'klori o`zbek klassik adabiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatgan.

Fol'klor asarlarining ayrim syujetlari, obrazlari, badiiy tasvir vositalari o`zbek klassik va yangi adabiyotida u yoki bu tarzda o`z aksini topgan.

Garchi fol'klor bilan yozma adaiyotni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlar bo`lsa-da, ularning har ikkisi ham o`ziga xos badiiy so`z san'atidir. Yozma adabiyot paydo bo`lganga qadar fol'klor so`z san'ati sifatida ma'lum tajribaga ega edi. Yozma adabiyot shakllana boshlagach, fol'klor uning forma va ifoda vositalariga , badiiy xususiyatlariga aktiv ta'sir ko`rsatdi. Shuning uchun M.Gor'kiy «So`z san'atining boshi fol'klordadir», deydi.

Buyuk shori va yozuvchilar qadim zamonlardan beri xalq ijodidan unumli foydalanib, ajoyib badiiy asarlar yaratdilar. Rus adabiyotning klassiklari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.M.Gor'kiy o`zbek adabiyotining klassiklari A.Navoiy, Z.M.Bobur, Gulxaniy, H.H.Niyoziy tojik adabiyotining klassiklari Firdavsiy, A.Jomiy, H.Dehlaviy va boshqalar fol'klorni yaxshi bilganlar, uni sevganlar, og`zaki ijod namunalaridan muvaffaqiyatli foydalanganlar; fol'klorning ijodiylariga ta'siri «Shohnoma» (Firdavsiy), Haft Paykar (N.Ganjaviy), «Xamsa» (A.Navoiy), «Zarbulmasal» (Gulxaniy), «Gul va Navro`z» (Lutfiy) kabi asarlarida yaqqol seziladi.

Bugina emas, o`z navbatida yozma adabiyot ham fol'klorga samarali ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Fol'klor asarlarini yaratish va uni saqlashga shoirlari, baxshilari, ertakchilari, qo`shiqchilari, masxaraboz va qiziqchilari, askiyachilari, qissaxon va latifachialrining roli g`oyat katta. Bugungina o`zbek fol'klorining taraqqiyotida Ergash Jumanbulbul o`g`li, Islom shoir Nazar o`g`li, Muhammadqul Jomrot o`g`li Po`lkan kabi xalq shoirlarning, Yusuf qiziq, Ro`zi gov, Ismoilov xo`roz, Boymat qiziq kabi xalq qiziqchilarining, G`anijon Toshmatov, Ma'murjon Uzoqov, Jo`raxon Sultonov kabi askiyachilarning xizmati nihoyat katta bo`lgan.

## TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. «Xalq og`zaki ijodi» fanining, «fol'klor» tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
2. «O`zbek xalq og`zaki ijodi» kursi nimani o`rgatadi?

3. «Fol'klor» faning o`ziga xos belgilar, uning yozma adabiyotdan farq qiluvchi xususiyatlari nimalardan iborat.
4. Fol'klor asarlarining yozma adabiyotga ta'sirini nimalarda ko`ramiz?

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. «Xalq og`zaki poetik ijodi» kursining o`rganish ob`ekti, maqsadi, o`ziga xos xususiyatlari.
2. Xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotning o`zaro munosabatlari, ta'sir va aks ta'siri.

### **MAVZU: O`RTA OSIYO XALQLARINING OG`ZAKI IJOD YODGORLIKHLARI (MIF VA AFSONALAR)**

#### ***R E J A :***

1. O`rta Osiyo madaniyatining qadimgi beshigi sifatida.
2. Mifologik obrazlarda yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va zulmat, do`sht va dushman kuchlarining ifodalanishi.
3. «Avesto», «Shohnoma», «Devoni lug`otit turk» asarlarida, yunon va xind tarixchilari asarlarida keltirilgan tarixiy-badiiy ma'lumotlar.
4. Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Siyovush, v..b. afsonalar.
5. To`maris, Shiroq-qaxramonlik afsonasi sifatida.

#### ***A D A B I Y O T L A R:***

1. Drevnie avtori o Sredney Azii. T., 1940 s 31-32.
2. Broginskiy I.S. «Iz istorii tadjikskoy narodnoy poezii» M., 1956.121-bet
3. Tolstov S.P. «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab». O`zFA nashriyoti. T., 1964
4. O`zbek adabiyoti tarixi.Fan,T., 1978
5. Gulomov.Ya. Xorazmning sug`orilish tarixi.Fan.1959.
6. Qayumov A.P. «Qadimiyat obidalari».T., 1978.

### ***O`RTA OSIYO XALQLARINING ENG QADIMGI OG`ZAKI YODGORLIKHLARI. (Mif va Afsonalar)***

O`rta Osiyo xalqlari dunyodagi boshqa xalqlar qatori o`zlarining eng qadimgi va boy madniyatiga, adabiy tarixiga ega. Grek, Xind, Xitoy, Arman tarixchilarining, Rus va Evropa olimlarining asarlarida O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi madniyati va og`zaki ijodi to`grisida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. O`rta Osiyo xalqlarining madaniyatini, og`zaki ijodini o`rganishda rus olimalridan A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, V.Vasil'ev, E.F.Kal, A.A.Divaev, A.N.Samoylovich, V.V.Rallov, V.V. Bartol'd, N. Volniskiy, N.P.Ostoumov kabilarning xizmatlari kattadir

Ya.G`ulomov, V.Shishkin va S.P.Tolstov kabi mushxur arxeolog olimlarning O`zbekiston territoriyasida olib borgan arxeologik qidiruv ishlari ham xalqimizning eng qadimiy va boy madaniy merosga ega bo`lganligini ko`rsatadi.

O`rta Osiyo xalqlarining kishilik madaniyatini eng qadimgi beshiklaridan biri hisoblanadi. Arxeologik qazilmalar natijalari eramizdan avvalgi minginchi yillardayoq bu territoriyalarda odamlar istiqomat qilganliklarini isbotlaydi

Eramizgacha bo`lgan O`rta Osiyo territoriyasida (Xorazm, Amudaryo, Zarafshon vohalarida) yashagan xalqlarning tili, urf-odatlari va madaniyati bir-biridan katta farq qilmagan.

O`rta Osiyo territoriyasida yashagan qabilalarning bir qismi ko`chmanchilik bilan hayot kechiradigan bo`lsa, ikkinchi bir qismi o`troq holda yashagan. Ko`chmanchilik bilan hayot kechirganlari chorvachilik va ovchilik bilan shug`ullangan bo`lsalar, o`troq holda yashaganlari dehqonchilik, hunarmandlik bilan mashg`ul bo`lganlar. Davrlar o`tishi bilan xalq sun`iy sug`orish, inshoot ishlarini keng yo`l qo`ya boshlagan.

O`rta Osiyo territoriyasida yashagan qabilalar uzoq davom etgan tarixiy protsess natijasida chatishib ketganlar va hozirgi O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi ota-bobolari vujudga kelgan.

Quldarlik maydonga kelishi bilan savdo-sotiqa, hunarmandchilik rivojlandi. Bu territoriyada Samarcand, Buxoro, Farg`ona kabi yirik shaharlar paydo bo`ldi. Arxeologik qazilmalar shuni isbotlaydiki, o`sha davrlarda yashagan ota-bobolarimiz kemasozlik, baliqchilik bilan ham shug`ullanishgan. Ma'lumki, ibridoiy kishilar tabiat hodisalari va jamiyatdagi voqealarning tub sabablarini bilmaganlar. Ular tabiatda yashin, dovu, suv toshqini, zilzila kabi tabiat hodisalarining mohiyatini tushunmas edilar. Inson, er, osmon, quyosh, oy kabilarni jonli hodisalar deb tasavvur qilar, ularga sig`inar, ayrim hayvonlarni muqaddas deb bilardi.

Ibtidoiy kishi tasavvurida tabiatda unga do`sht va dushman bo`lgan ikki xil kuch mavjud. Ana shu tasavvur zaminida turli miflar, afsonalar paydo bo`lgan.

Bu xaqida A.M.Gor`kiy yozkvchilarining 1-se`zdida so`zlagan nutqida quyidagilarni aytgan edi: «Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning ma'lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy mag`zini chuqurroq tushunishni istardim. Bularning asosiy g`oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini engillashtirishga, ularning ish unumini oshirishlariga, to`rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlariga qarshi qurollanishlariga hamda so`z kuchi-«avrash», «afsun» yo`li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo`lgan hodisalarga ta`sir etishlariga qaratilgan».<sup>1</sup>

Shunday qilib, mif kishilarning zaif tomonlarinigina emas, balki ularning kuch-qudrati va orzu-armonlarini ham fantaziya asosida tasvirlaydi, mujassamlashtiradi, u poeziya va san`atning ravnaq topishiga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham qadimgi mif afsonalarni o`rganish M.Gor`kiy yozganidek: «Insonlarga dushman bo`lgan tabiat hodisalari, stixiyalarga ta`sir qilish istagi» qanday bo`lganligini yaqqol tasavvur qilishga imkon beradi.

<sup>1</sup> А.М.Горький. Адабиёт хаъзида. Тошкент, 1962 й. 265-бет.

Haqiqatdan ham afsona va miflar real tarixiy sharoit va foqealardan kelib chiqqan. Inson turmushiining og`ir mashaqqatlari, inson orzu-istiklari aks ettirilgan qadimgi mif va afsonalar «insoniyat jamiyatining bolalik davri» haqidagi go`zal badiiy lavhalardir. Mif va afsonalarning qachon paydo bo`lgani, ularda hayot haqiqati qay darajada aks etganini aniqlash qiyin. Shunday bo`lsa-da, afsona va miflarda aks ettirilgan qator hollar real bog`liq, real voqeal-hodisalarga asoslangani aniq. Xalq og`zaki ijodida yaratilgan bu mif va afsonalar keyinchalik yozma adabiyotga kirib borgan, davrlar o`tishi bilan qayta-qayta ishlanib silliqlana borgan.

O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi mif va afsonalarda asosan yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat o`rtasidagi kurash tasvirlanadi. Ko`pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki kuch o`rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Miflarda hikoya qilinishicha, ikki olam ya`ni yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olami Axura Mazda (Xurmuz) yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. «Go`yo 3000 yil mobaynida bu ikki olam bir-biri bilan to`qnashmagan. Yaxshilik va Nur olamini bilib qolgan Axriman unga qarshi kurash ochmoqchi bo`ladi. Xurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi uch ming yillikda osmon, er, suv, o`simplik, hayvonlar va boshqalar hamda birinchi insonni yaratdi. Shundan so`ng uchinchi davr (6000-8999) kurash davri boshlandi. Er yuzi turli kuchlarning to`ngashuvi makoniga aylandi. Axriman birinchi insonni o`ldirgan bo`lsa ham, lekin kishilik urug`ini yo`qotib yubora olmaydi. To`rtinchi davr (9000-11999)da yaxshilik va kuch nurlari yomonlik va zulmat ustidan g`alaba qozonadi.»<sup>2</sup>

Ana shu ikki kuch o`rtasidagi kurash halq og`zaki ijodida Kayumars, Siyovush, Baxman va Doro, Mitra, Anaxita, Gerasp, Elikbek kabi afsonaviy va mifologik obrazlarda mujasamlashgan.

### ***Qayumars afsonasi***

Bu afsona O`rta Osiyo va Eron xalqlari o`rtasida qadimdan mashhur bo`lib kelgan. Bu afsonaning manbai «Avesto»dir. Bu afsona to`g`risida «Tarixi tabariy» asarida, Firdavsiyning «Shohnoma», Alisher Navoiyning «Tarixi Muluki Ajam» asarida, shuningdek, prof. S.P.Tolstovning «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab», prof. N.M.Mallaevning «O`zbek adabiyoti tarixi» va boshqa manbalarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy Qayumars afsonasining mazmunini keltiradi, «Axrimaniing yomon qilmishlaridan xudo hayratda qoladi, uning peshonasidan ter chiqadi. Terni artib tashlaganda ter donasidan Qayumars tug`iladi. Xudo Qayumarsni Axriman yoniga jo`natadi. Qayumars Axriman yoniga etib kelib, uning elkasiga minib oladi va shu holda dunyonи aylana boshlaydi. Nihoyat Axriman bir hiyla bilan Qayumarsni elkasidan uloqtirib tashlaydi va uning ustiga minib olib eyajagini aytadi. Seni qaysi tomoningdan boshlab eyayin, deb so`raydi Axriman. Oyoq tomonimdan, deb javob beradi Qayumars, tokim dunyo go`zalligidan uzoqroq bahra olib turayin. Ammo Qayumars Axrimanning u aytgan gapning teskarisini qilishini bilar edi. Axriman Qayumarsni bosh tomonidan eya boshlaydi. Beliga etganda Qayumarsning urug`donidan ikki dona urug` erga tushadi. Ulardan o`simplik o`sib chiqadi. O`sha

<sup>2</sup> Н.маллаев.Ўзбек адабиёти тарихи, 1-китоб, Тошкент, 1976 йил, 43-бет.

o`simliklardan biri o`g`il, bir qiz (Meshi va Meshona) paydo bo`ladi. Ular forslar Odam va Momohavo deb biladilar. Ular yana Mali va Malxiana deb ham ataganlar. Xorzamliklar esa Marp va Marpona deb ataydilar»<sup>3</sup>

«Tarixi tabariy»dagi Jamshid afsonasi o`z mazmuni bilan Navoiy va Firdavsiy hikoyasidan bir oz farq qiladi. Unda Jamshiddan tashqari yana Iblis obrazi ham bor. Tarixi Jamshidning keyinchalik Iblis makriga uchraganligini alohida qayd etib, unga ma'lum darajada afsonaviy ruh beradi. Jamshid obrazi o`zbek xalqining «Kitobi Jamshid» asarida ham saqlangan.

Beruniy Jamshidning ko`p va xayrli ishlarini sanab chiqadi.  
Uning Navro`z bayramini tayin etganini so`zlaydi.

Umuman Jamshid mifologik obrazi xalq og`zaki ijodida, keyincha yozma adabiyotda yomonlik kuchlariga qarshi kurashda xalq najotkori sifatida tasvirlanadi, kishilarning ma`naviy g`alabasi va o`z kelajagiga ishonchini yaqqol ifodalaydi.

SIYoVUSH AFSONASI. Bu afsona ko`proq O`rta Osiyoda yoyilganligi Xorazm va Buxoroda mashhur bo`lgan tarixiy manbaalarda qayd qilinadi.

E.E.Bertel's o`zining «fors-tojik adabiyoti tarixi» (1960) nomli kitobida Siyovush afsonasining tarixiy ildizlari «Avesto»da uchraydi deb ko`rsatsa, S.P.Tolstov Beruniy ma'lumotlariga asoslanib, Siyovush miloddan avvalgi XIII asrda Xorazm davlatiga asos solgan deb yozadi, A.D.Avdeeva esa «O`zbekistonning raqs san'ati» (1960) monografiyasida farg`onacha «katta o`yin» Siyovush afsonasi asosida yaratilgan deb ko`rsatadi.

Siyovush afsonasi to`g`risida «Tarixi tabariy», «Tarixi Komil», «Tarixi Narshaxiy» kitoblarida ham ma'lumotlar yozilgan.<sup>4</sup>

Siyovush-xalq qaxramoni. Afsonalarda xikoya qilinishicha, Siyovush Kaykovusning o`g`li bo`lgan. Nihoyat darajada go`zal yigit bo`lib, uni o`gay onasi sevib qoladi. Lekin, u o`gay onasining taklifini rad etadi. Bunga chiday olmagan o`gay ona unga tuhmat qiladi. Siyovush o`zining pokligini isbotlash uchun ot surib alangadan o`tadi, so`ng Afrosiyob poytaxtiga boradi. Afrosiyob uni izzat-hurmat bilan kutib oladi va unga o`z qizini beradi. Lekin, dushmanlar Afrosiyob bilan Siyovush o`rtasiga nifoq soladilar, adovat urug`ini sochadilar. Natijada Afrosiyob Siyovushni o`ldiradi. Siyovushning o`g`li Kayxisrav o`z bobosi Afrosiyobdan otasi uchun qasos oladi, uni o`ldiradi. Afsona oxirida Kayxisrav xorazmiy shohlar sulolasiga asos solganligi so`zlanadi.

Xalq tarixchisi Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida Siyovushning Buxoro yaqiniga ko`milganligini yozadi.

Ko`rinib turibdiki, bizgacha saqlab qolgan Mitra, Anaxita, Qayumars, Jamshid, Gerasp, Elikbek, Afrosiyob, Siyovush, Rustam, Zarina, Zoriadr, va Odatida xaqidagi afsonalar qadimgi O`rta Osiyo xalqlarining boy va takrorlanmas og`zaki ijodi bo`lganligini isbotlaydi.

Hayot mashaqqatlari va xalq orzularini o`zida ifoda etgan bu afsona va miflar qadimgi ota-bobolarimiz turmushi xaqidagi go`zal badiiy lavhalardir

<sup>3</sup> Беруний. Ал-осор-Ул бо'зия ан-ала'зарун-ул-малия, Токент, «Фан» нашриёти» 1969 йил.

<sup>4</sup> Франаг: Ӯзбек адабиёти тарихи, 5-томлик, 1-том, «Фан» нашрийти Тошкент, 1977 йил, 32-33 бетлар.

## TO`MARIS AFSONASI.

«To`maris» afsonasi O`rta Osiyo xalqlarining chet-el bosqinchilariga qarshi olib borgan qahramonona kurashining yorqin badiiy ifodasidir.

To`maris eradan avvalgi XI asrdla massaget qabilasiga bosh bo`lib, Eron shohi Kirga qarshi kurash olib borgan ayoldir. Bu ayol haqida grek tarixchisi Gerodot o`zining «Tarix» kitobida hikoya qilgan. Afsonaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Eng qadimgi zamonda Amudaryo yoqalarida massagetlar yashar edilar. Bu davrda ularga To`maris ismli ayol boshchilik qilar edi. Eron shohi Kir massagetlarni o`ziga qaram qilish niyatida To`marisga uylanmoqchi bo`lib, sovchilar yuboradi. Lekin To`maris Kirning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini beradi. Shundan so`ng Kir ochiq tajovuzga o`tadi, Massagetlar ustiga qo`shtin tortadi. To`maris urushni oldini olishga, behuda qon to`kmaslikga xarakat qiladi. Lekin, uning urinishlari behuda ketadi. Kir daryodan o`tishga ko`priklar qurdira boshlaydi. To`maris Kirga elchi yuboradi va aytadi: «Ey shoh! qilayotgan ishingni to`xtat! Hali sen boshlagan ishingni qanday tugashini bilmaysanku! Qo`y, sen o`z yurtingda podsholik qilaver, bizni ham holimizga qo`y. Lekin sen bunga ko`nmaydigan ko`rinasan. Agar sen biz bilan kuch sinashmoqchi bo`lsang, u holda marhamat, ko`priklar qurib ovora bo`lma, biz daryodan uch kunlik yo`l nariga ketamiz, shunga sen bizning erimizga o`t yoki o`z yurtingda uchrashini istasang, buni ayt, bunga biz ham rozi. Faqat nomardlik qilma». To`maris kurashga shaylanadi. Kir esa hiyla-nayrang yo`liga o`tadi. U To`maris o`g`li Spaganiz boshliq bir guruh massagetlarni mast qilib asir oladi. Voqeadan xabardor bo`lgan Kirga elchi yuboradi : «Ey qonxo`r Kir, qilgan ishing bilan maqtanmay qo`yaqol. Sen o`g`limni jang maydonida emas, nayrang yo`li bilan qo`lga olding. O`g`limni menga topshirib, kelgan eringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so`zimga kirmasang, massagetlar tangrisi-Quyosh nomi bilan qasamiyod qilamanki, men sendan ochko`z yuhoni qoni bilan sug`oraman», -deydi

Spraganiz o`ziga kelgach, voqeani anglab hijolatdan o`zini o`zi o`ldiradi. To`maris qo`shtin to`plab jangga otlanadi. To`maris o`z so`zi ustidan chiqib Kirning boshini kesib, qon bilan to`ldirilgan meshga solarkan, shunday deydi: «Ey nomard, men seni makkorlik bilan o`g`limdan judo qilib farzand dog`ida kuydirding. Men o`z ongimga amal qilib seni qon bilan sug`ordim».

Bu afsonada ham O`rta Osiyo ayollari qaxramonligi sharaflanadi. To`maris o`z ona yurti va xalqining osoyishta va baxtiyor yashashi uchun jonbozlik ko`rsatuvchi hukmron ayol sifatida gavdalanadi. Bu afsona yovuzlik va bosqinchilikka qarshi ozodlik va tinchilik tanatanasini kuylovchi asardir. Uning uzoq asrlar mobaynida og`izdan-og`izga, avloddan avlodga o`tib kelishining boisi ham shunda.

## SHIROQ AFSONASI.

Bu afsonada ham O`rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan mardona kurashi tasvirlanadi. «Shiroq» afsonasining asli saqlanmagan bo`lsada, uning qisqacha mazumuni grek tarixchisi Polienning «Harbiy hiylalar» kitobida hikoya qilingan. «To`maris» kabi «Shiroq» afsonasi ham tarixiy voqealar zaminida yuzaga kelgandir.

Bu afsonada qabilachilik davri uchun xarakterli bo`lgan hayotiy voqealar aks etgan. Afsonaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Dor qo`shini bilan saklar o`rtasida urush borardi. Sak podachilaridan Shiroq sak podshohlardan Sakesfar, Omarg va To`marislар huzuriga keladi. U Eron qo`shinlarini hiyla bilan engajagini aytadi. Ammo podshohlar Shiroqning oilasiga, bolalariga avlodiga g`amxo`rlik qilishlari shart edi. Ularning va'dalarini eshitgach, Shiroq o`sha erdayoq o`zining qulq burnini kesadi, badanini jarohatlaydi. So`ngra eroniylar turgan joyga keladi. Shiroq Dor huzuriga kirib, o`zini saklardan alam ko`rgan kishi sifatida tanishtiradi. U Eron qo`shinini saklarning eng chekka erlariga olib borajagini, u erda turib sak qo`shinini to`satdan hujum qilib g`alaba qozonajaklarini mumkinligini aytadi.

Doro qo`shinlari bir haftalik oziq-ovqat olib yo`laga chiqadi. Qo`shin uzoq yuradi, oziq-ovqat va suvi tamom bo`ladi. Atrof suvsiz va quruq va sahrodan iborat. Eron qo`shinlari aldanganliklarini anglaydi. Doroning qo`shin boshlig`i Ranosbat Shiroqdan shunday ulug` podshohni aldab, na olg`a yurish, na yurtga qaytish mumkin bo`lmagan sahroga boshlab kelishdan muroding nima deb so`raydi. Shunda Shiroq: «Men engdim yolg`iz o`zim butun bir boshli qo`shinii engdim. Jonajon qabilam saklar va ona tuprog`im boshiga kelgan baloni daf qilib, bosqinchi Doro qo`shinini olib keldim», -deb javob beradi. Botir cho`pon qatl etiladi. Doro qo`shinlari arang Amudaryo soxiliga etib oladilar.

Bu afsonada jonajon qabila va ona er uchun o`zini qurban qilgan Shiroq obrazi mehr bilan yaratilgan. Uning qabila manfaatlari uchun qurban bo`lishi, o`z qabiladoshlariga sadoqati, vatanparvarligi va qahramonligi uni monumental obrazga aylantiradiki, buni yozma adabiyotda ham uchratish mumkin.

Chunonchi, Abu Rayxon Beruniyning «Hindiston» asarida keltirilgan Kanik Afsonasi ham xuddi shu Shiroqga o`xshaydi. Ya'llyasovning «So`g`diyona» kitobida ham Mirmuhsinning «Shiroq» dostoni va O`zbekiston san'at muzeyida saqlanayotgan haykaltaroshlikka oid materiallarda ham Shiroq afsonasi mazmunini ifodalangan.

## **TEKSHIRISH SAVOLLARI**

1. O`rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, adabiy merosini o`rganishga oid tadqiqotlar olib borgan rus, evropa, o`zbek olimlarining faoliyati haqida ma'lumot.
2. Dunyoni dualistik tushunishning mohiyatini tushuntiring.
3. Mif va afsonalarning mohiyati, ibridoiy insonnning tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini qanday tushnishgan.
4. «To`maris», «Shiroq» afsonalarining tarixiy asoslari, unday qaysi xalqlar hayot tarzi o`z ifodasini topgan.

## **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. O`rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, mehnat va adabiyotni o`rganishga oid tadqiqot olib borgan mualliflar, ularning asarlari.

2. Mif va afsonalarda qadimgi inson hayot tarzi, tasavvuri qanday ifodalangan?

**MAVZU: O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODINING JANRALARI,  
XALQ DOSTONLARI. «ALPOMISH» QAXRAMONLIK EPOSI.**

**R E J A :**

1. Xalq og`zaki poetik ijodining janrlari rang-barangligi.
2. Doston-xalq xayotini keng ko`lamada tasvirlovchi ishqiy qaxramonlik sifatida.
3. Dostonlar tasnifi.
4. «Alpomish» qaxramonlik, do`stlik, chin sevgini ulug`lovchi asar sifatida.
5. Alpomish, Barchin, Qorajon v.b. obrazlar.
6. «Alpomish» dostoni ustidagi bahslar.
7. Dostonning 1000 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan tadbirlar va ularning ahamiyati.

**A D A B I Y O T L A R :**

1. Sarimsoqov B. O`zbek fol`klorining janrlari sostavi. «O`zbek fol`klorlari ocherki» 3-tomlik, T., 1988
2. Adabiyot nazariyasi, P-tomlik, T., 1978, 1979
3. Mirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. M., 1947
4. Saidov M. O`zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat T., 1969
5. Abdulaev X. Xalq dostonlari va ularning variantlari. T., 1984
6. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. T., 1968
7. O`sha: Xalq baxshilarining epik repertuari. T., 1979.
8. Boboev M. «Doston va hayot» T., 1982.
9. O`sha: «Jizn` istoriya epos», T., 1991
10. Umarov S. «Tarix va doston» T., 1985
11. Jamoa. «Alpomish»-qahramonlik eposi» T., 1999

**O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODINING  
JANRLARI**

Ma'lumki, adabiyot va sa'nat asarlari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida uning ehtiyojlarini tufayli yuzaga kelib, mazkur jamiyat hayotini ifoda etib, aks ettirib, shu jamiyat bilan birga taraqqiy etadi o`z davrini yashab keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy boylik sifatida xizmat qiladi. Muayyan ijtimoiy jamiyat yo`q bo`lib ketib, o`rniga yangi bir ijtimoiy tuzum kelishi mumkin. Lekin adabiyot va sa'nat asarlari yo`qolib ketmaydi, balki umuminsoniy ideallarni aks ettirib, muayyan davrga, xalqqa mansub bo`lgani uchun u tarixiy va abadiydir. Bu fikrlarni yozma adabiyotdan birmuncha

avvalrroq paydo bo`lgan xalq og`zaki ijodiga ham tadbiq etishi mumkin. Fol'klor va uning janrlari uzoq va murakkab tarixiy yo`lni bosib o`tdi. Ming yillar davomida ijodkor xalq fol'klorning xilma-xil janrlarida boy adabiy meros yaratdi.

Xalq og`zaki ijodi tarixiy kategoriya sifatida rivojlanib, boyib keldi. Fol'klorning janr formalari juda qadimiy bo`lsa-da, u xamisha o`zgarishda, rivojlanishdadir. Chunki, har bir adabiy forma, poetik janr muayyan tarixiy sharoitda turli o`zgarishlarga uchrashi, formal poetik jixatdan isloh qilinishi mumkin.

Yozma adabiyotdagi adabiy turlar va janr formalari kabi fol'klordagi janr formalari ham bir-biriga ta'sir, etib bir-birini to`ldirib boradi. Aniqrog`i fol'klorda ham janrlar sintezi uzlusiz davom etadi. Xalq og`zaki ijodining janrlari bir tekisda taraqqiy etmaydi. Balki adabiyot jarayonda davr va jamiyat talabidan kelib chiqib, notekis taraqqiy etishi mumkin. Xalq og`zaki ijodining eng qadimgi janr formasi hisoblangan maqol hamma davlar va jamiyatlarda uzlusiz taraqqiy etib keldi. Ammo bu fikrni fol'klorning yirik janri hisoblangan dostonlarga nisbatan taraqqiy etib bo`lmaydi. Chunki, Oktyabr' revolyutsiyasigacha bo`lgan davrda va revolyutsiyaning dastlabki yillarida dostonchilik ancha taraqqiy etgan bo`lsa, hozirgi vaqtida esa yirik dostonlar umuman yaratilmayapti yoki bu janr imkoniyatlari yozma adabiyotning boshqa formalarda uchramoqda. Shunday bo`lsa-da, xalq og`zaki badiiy ijodida ming yillar davomida turli xil poetik formalar, janrlar yaratildiki, fol'klorda ma'lum adabiy traditsiya vujudga keldi. Shuning uchun xalq og`zaki ijodidagi janrlar problemasini ilmiy jihatdan o`rganish, fol'klor janrlarini klasifikatsiya qilib, ularning janr xususiyatlarini aniqlash mumkin.

*Xalq og`zaki ijodining formal poetik xususiyatlarini hisobga olib ularni quyidagi janrlarga ajartish mumkin:*

1. Xalq dostonlari.
2. Xalq ertaklari.
3. Xalq dramasi.
4. Askiya.
5. Afandi latifalari.
6. Xalq qo`shiqlari.
7. Xalq maqollari.
8. Topishmoqlar.

## **XALQ DOSTONLARI**

Dostonlar xalq og`zaki badiiy ijodining eng yirik janrlaridan biridir. Doston qahramonlarning o`zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko`lamda tasvirlovchi, ishqiy yoki fantastik mazmunga ega bo`lgan yirik hajmdagi she'riy asardir. Unda o`rni-o`rnida (asar ichida) nasriy parchalar ham berilgan. Dostonlar halqning o`zi tomonidan aytilgan xalq tarixidir. Dostonlar har bir tarixiy davning,

sotsial tuzumning, xalq psixologiyasining xususiyatilarini badiiy formada aks ettiradi. Dostonlar xalq orasida yaratilgani uchun ijodkor xalq dostonlar orqali o`z orzu intilishlarini, his-tuyg`ularini ifodalaydi. Dostonlar hajm jihatdan ham vogelikni aks ettirish obrazlar sistemasining keng va atroflicha talqin etilishi jihatidan xam fol`klorning boshqa janrlariga nisbatan salmoqli. Shuning uchun ham dostonlarni ba`zan xalq romanlari deb yuritadilar. Dostonlarni odatida alohida avtorlar yaratadilar. Biroq asrlar davomida og`izdan og`izga o`tishi natijasida ularning birinchi ijrochisi unutilib, umumxalq ijodiga aylanib qoladi. Xalq dostonlarining turli tsikllari, varinat va versiyalari paydo bo`ladi. Ma`lumki fol`klordagi dostonchilikning asosiy xususiyati ijodiy protsessning kollektiv xrakteriga ega bo`lishidir.

Masalan, hikoya qilishlaricha Ernazar Baxshi Buxoro Amiri Nasrullo huzurida «Alpomish» dostonidan olti kuy kuylagan emish. Bunda u qalmoqlar qo`lida tutqunda yotgan qahramonning Boychibor tulpori yordamida qutqarilishini yangidan-yangi to`sinqinliklar qo`shib, cho`za bergen emish. Oxiri sabr-toqati qolmagan Nasrullo o`zining janga minadigan otini egarlatib, shoir ro`parasiga bog`lagan emish. Buni faxmlagan xushyor shoir shu epizodni dostonga kiritib, go`yo amirning oti Alpomishni qutqarishga jo`nagan va uni shu ot qutqargan qilib ko`rsatgan, shu bilan birga dostonning keyingi epizodlarini siqib, asarni tez tugatgan emish.

Ma`lumki, xalq dostonlari qabilachilik tuzumining emirilishi bilan yakka shaxs o`zining urug` va qabilalariga, jamoalariga qarshi kuch boshlagan davrlarda paydo bo`la boshladi. Ijtimoiy taraqqiyot davri, voqeа-hodisalarning mavjud ertak, hikoyat, lirk she`r kabi janrlarga sig`may qolishi va voqealikni murakkab epik planda tasvirlashga bo`lgan talabning kuchayishi natijasida doston janri paydo bo`la boshladi.

Shuningdek, o`tmishda tarixiy shaxslar faoliyati, xalq marosim qo`shiqlari, xalq ertaklari, xalqning hayot usuli va urf-odatlari, turli xarakterdagi manbalar doston janrinining shakllanishiga turki bo`lgan deyish mumkin. Xalq og`zaki ijodidagi doston janri o`zining spetsifik xususiyatlari bilan yozma adabiyotdagи dostonlardan farq qiladi. Bu farq doston tematikasiga ham g`oyaviy, mazmunga ham, syujeti va kompozitsion qurilishda ham, obrazlar sistemasi va uslubida ham yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Bu farqlar asosan quyidagilar. Dostonlar qahramonlari dahshatli dushmanlari-devlar, yalmog`izlar, ajdaholar ustidan yakka kurashda g`olib chiqadi. Ana shu xususiyat xalq dostonlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Doston qahramonlari alp (solishtiring Alp Tegin, Alp Arslon, Alp Basmi, Alpomish) pahlavon, polvon qiyofasida tasvirlanadi. Dostonlarda qahramonlar arslon, sher, yo`lbars, qoplonga o`xshatiladi. Dostonlarda qahramonlarning tashqi qiyofasi jismoniy jihatdan ham, ideallashtiriladi. Bu narsa doston qahramonlarining dushmanlar bilan kurashida yaqqol seziladi. Jumladan, «Malika ayyor» dostonida Avaz bahaybat kelbatli, har panjasি 3,6,9, botmon keladigan Makotilni qumursqaga qiyos qiladi va engadi.

Ko`pchilik dostonlarda qahramonlarning jasorati yoshlik paytlarida namoyon bo`ladi. Alpomish 14 yoshida qalmoqlar yurtiga Barchin uchun boradi. Go`ro`g`li 6 yoshida Badgirni o`ldiradi, 9 yoshli Nurali bilan otasi Avazni qutqarishga yo`lga chiqadi. Xalq dostonlarig xos bo`lgan yana bir xususiyat ota-onaning uzoq safar oldidan o`z farzandiga nasihatidir. Chunonchi, «Ravshan» dostonida Hasan

Ravshanni qahramonlikka, jasoratga, adolatli va insonparvar bo`lishga undaydi. Dostonlarda sevgi va muhabbat, ma'shuqalarining qahramonligi, kanizaklar ham alohida romantik ruh bilan tasvirlangan. Doston syujetida qahramonlar minadigan ot asosiy o`rinni tutadi. Bedov, Tulpor, G`irot, G`irko`k nomlari bilan beriladigan otlar doston bosh qahramonlarining sarguzashtlarida yaqin yordamchi sifatida ifodalanadi. Ot yordamida uzoq masofalarni qisqa muddatda bosib o`tadi, katta-katta ishlarni bajaradi. Dostonlarda qahramonlarning devlarga qarshi kurashi va ularni o`z izmiga solib olishlari ham tasvirlangan. Bunday obrazlar «Malikayi ayyor», «Yunus pari», «Balogardon» kabi dostonlarda uchraydi. Umuman fol'klordagi doston janrining yozma adabiyotdagi dostonlardan farqlovchi shunga o`xhash juda ko`p xususiyatlari mavjudki, ular tematik jihatdan ham g`oyaviy badiiy jihatdan ham g`oyaviy badiiy jihatdan ham bir-birini takrorlamaydi. Doston janrini tematik va g`oyaviy mazmunga qarab quyidagi xillarga ajratish mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Alpomish»)
2. Ishqiy romantik dostonlar («Ravshan» va Go`ro`g`li tsiklidagi dostonlar).
3. Tarixiy dostonlar. («Shayboniyxon», «To`lg`onoy» kabi)
4. Kitobiy dostonlar, «Bahrom va Gulandom», «Oshiq G`arib va Shoxsanam» va boshqalar

### «ALPOMISH» DOSTONI

«Alpomish» dostoni mashhur xalq qahramonlik eposidir. «Alpomish» qahramonlik, vatanparvarlik, xalqlar do`stligi, birodarlik, chin sevgi va sadoqatni kuylovchi dostondir. Bu doston qadim zamonlarda vujudga kelib, asrlar davomida xalq baxshilar, shoirlar tomonidan kuylanib, takomillashib bordi. Bu doston xalq baxshilarining sevib kuylaydigan asardir. Birorta o`zbek baxshisi yo`qki, «Alpomish» dostonini zavq-shavq bilan kuylamagan bo`lsin. Shuning uchun «Alpomish» dostoning o`zbek shoir va baxshilar tomonidan kuylanib kelgan va fol'klorshunoslikka yozib olingan 30 dan ortiq varinati bor.<sup>1</sup>

Ana shu varintlari orasida eng mukammali va badiiy jihatdan pishiq ishlangani Fozil Yo`ldosh o`g`lidan yozib olingan variantdir. Bu variant 1939 yilda Hamid Olimjon so`zboshissi bilan chiqdi. «Alpomish» dostoni turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda ham «Alpomish» dostoning turli variantlari bordir. «Alpomish» dostonining kurtaklari, patriarchal qabilalar hayotiga borib taqaladi. Dostonda ibridoiy jamoa tuzumining emirilishi, sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, qabila kambag`allarining qul qilinishi hamda feodal munosabatlarining shakllanishi tasvirlangan. Ilmiy adabiyotlarda «Alpomish» dostoni XVI asrda to`la shakllangan deb ko`rsatiladi.<sup>2</sup>

Ammo, Alpomish qaysi davrda yaratilgan bo`lmasin, unda xalq tarixi va kurashi, ozodlik uchun intilishi, xalq urf-odatlari o`zining yorqin badiiy ifodasini topgan.

<sup>1</sup> Тани<sup>3</sup>ли фольклоршунос олим Т'ра Мирзаев «Алпомиши» дostonинг 'збек variantlari («Фан» нашриёти, Т., 1968 йил) номли monografiyasida «Алпомиши» дostonininng variantlari т'2risida atroflicha fikr юритган.

<sup>2</sup> Ҳаранг: В.М.Жирмунский, Х.Т.Зарифов. «Узбекский народный героический эпос», М., 1947

«Alpomish» dostonining Fozil Yo`ldosh o`g`li og`zidan yozib olingen varianti eng mukammali, o`zbek va boshqa halqlari kitoblari orasida mashhuri hisoblanadi. Shuning uchun biz quyida ana shu Fozil shoir variantining qisqacha syujetini keltirish va shu xaqda fikr yuritishni lozim ko`rdik.

Qadim zamonlarda o`n olti urug` Qo`ng`irot elida Dobonbiy degan o`tgan ekan. Dobonbiydan Olpinbiy ismli farzand tug`ilibdi. Olpinbiydan esa ikki o`g`il paydo bo`libdi. U kattasiga Boybo`ri, kichigiga Boysari deb ism qo`yibdi. Dobonbiy o`z mamlakatining boyligini ikkiga bo`lib, uni Qo`ng`irot va Boysun deb ataydi. Biriga katta o`gli Boybo`rini, ikkinchisiga kichik o`g`li Boysarini xukmdor etib tayinlabdi. Boybo`ri bilan Boysari farzand ko`rmaydi. Hatto to`yda odamlarning gapini eshitadilar. Ular farzandsizlikdan eziladilar. Nihoyat Boybo`ri bilan Boysarining xotinlari xomilador bo`ladilar. Boybo`ri o`g`il ko`radi ismini Xakimbek qo`yadi. Boysari esa qizlik bo`ladi, ismini Barchin qo`yadi. Aka-ukalar farzandlarimiz voyaga etsa quda bo`lamiz deb ahd qilishadi. Xakimbek yoshligidanoq pahlavon bo`lib o`sadi, atrofdagilar uni pahlavon ya`ni «alp» deb atay boshlaydilar. Barchin ham go`zallikda, aql-idrokida yagona bo`lib o`sadi.

Kunlarning birida Boybo`ri bilan Boysari o`rtasida nizo kelib chiqadi. Buning sababi Boybo`rinng o`z ukasi Boysaridan zakot talab qilishi edi. Akasiga zakot berishni istamagach Boysari o`z urug`i bilan qalmoq eliga panoh izlab ketadi. Yo`lda Boysari chorvasi qalmoqlarning ekin erlarini payhon qiladi. Bundan qattiq g`azablangan Qalmoqshoh Boysariga dushmanlarcha munosabatda bo`ladi. Qalmoqshohning 90 alp yigit bo`lib, Barchinga oshiq bo`lib qoladilar. Zo`ravonlarchasovchi yuboradilar. Mana shunday bir paytda Barchin qalmoq xukmdorining zo`ravonligiga qarshi o`zini qutqarish uchun harakat qiladi. Otasingning mushkul ahvolga tushib qolganligini ko`rib, o`z talantini ishga soladi. Qalmoqlardan qutilish yo`lini izlaydi. Shu maqsadda 4 shart qo`yadi. Shart bajargan kishiga xotin bo`lishga tayyor ekanligini bildiradi. Shartlarning birinchisi ming qadam joydan tangani urish, ikkinchisi 90 alpni kurashdan engib chiqish, uchinchi kamon otganda yoyi sinmaslik, to`rtinchisi poygada o`zish edi.

Lekin, Barchin Alpomishni sevardi. Shuning uchun u Alpomishga xabar yuboradi. O`zining ahvoli va shartlarini bildiradi. Alpomish xabarni eshitgach, qator sarguzashtlardan so`ng qalmoqlar yurtiga etib keladi, Qorajon bilan do`stalashadi. Alpomish bilan Qorajon bir taraf, alplar bir taraf bo`lib kurash boshlaydilar. Barchin qo`yan shartlarni bajargach yana bir qancha sarguzashtlardan so`ng o`z yurti Qo`ng`irotga Barchinni olib qaytadi. Murod-maqsadiga etadi.

Biroq shuni alohida ta`kidlash kerakki, «Alpomish» dostoni turli baxshilar tomonidan turlicha kuylangani sababli, uning syujetida turli xarakterdagи o`zgarishlar mavjud. Bir variantga mavjud bo`lgan epizod ikkinchisida tushib qolgan yoki boshqacha planda berilgan. Hatto ma`lum tarixiy sharoitga xos bo`lgan ayrim yangi voqealar kirib qolgan. Ayrim obrazlar bir asarda bir xil talqin qilinsa, ikkinchisida ikkinchi xil beriladi. Jumladan, Barchin shartlari ba`zi varantlariga 2 ta ayrimlarida 3 ta xolos. Dostondagi voqealari Boysun va Qo`ng`irotda yuz bergenligi aniq aytildi. Qo`ng`irot qabilasi eng qadimgi qabilalardan bo`lib, u o`zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkmanlarning urug`laridandir. Qo`ng`irot qabilasi asosan chorvachilik bilan shug`ullangan ular Amudaryo yoqasi va Boysun ko`li atrofida

ko`chmanchilik bilan hayot kechirishgan. Dostonda tasvirlangan poga o`tkazilgan joy Boboxon tog`i Termiz yaqinidadir. «Alpomish» dostonning boshqa xalqlarda mavjud bo`lgan variantlarida ham Amudaryo yoqasi, Boysun atrofi qayd etiladi. Bularning barchasi «Alpomish» dostoni Surxandaryo territoriyasida yaratilganligi va boshqa joylarga ham tarqalib shuhrat qozonganini ko`rsatadi.

«Alpomish» dostoni uzoq zamonlardan buyon aytilib kelingani uchun ham unda turli davrlarga xos ijtimoiy sinfiy munosabatlar o`z aksini topgan. Umuman qabilaga, elga samimiyl muhabbat, dushmanga g`azab va nafrat, mardlik va fidokorlik, oila baxti, samimiyl sevgi, do`stlik va sadoqat, inson va adolat, osoyishtalik va farovonlik uchun kurash dostonining etakchi g`oyaviy leytmotivini tashkil qiladi. Bu g`oyaviy motivlar dostonning bosh qahramonlari Alpomish va Barchin sevgisi sarguzashtlari fonida tashkil etiladi. Dostonda, shuningdek, Qaldirg`och, Qorajon, Toychaxon, Surxayil kampir, Ultontoz va Ko`kaldosh obrazlari yaratilganki, bularning har biri asar syujeti va kompozitsiyasida muayyan estetik maqsadni ochishdan katta o`rin tutadi. Bu obrazlar voqealarning rivojlanishi bilan birga o`sib, taraqqiy etib boradi, har bir obraz o`ziga xos xususiyatni gavdalantiradi.

«Alpomish» dostoni ko`p asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylanib xalqni mardlik, qaxramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol` o`ynab kelmoqda. «Alpomish» dostonidan ilmiy jihatdan o`rganish asosan Ulug` Oktyabr` sotsialistik revolyutsiyasidan keyin boshlandi. Bu sohada G`ozi Olim Yunusov, X.T.Zarifov, M.Zarifov, M.Afzalov va boshqalarning xizmati kattadir. «Alpomish» dostonini ilmiy asosda nashr etish va o`rganish 30-yillarning oxirida boshlandi. Bu sohada ayniqsa X.Olimjon va X.T.Zarifovlar tashabbus ko`rsatdilar. Ammo 50-yillarning boshlarida ayrim adabiyotshunoslar xalqimiz asrlar davomida qadrlangan, sevgan asarlariga, jumladan, «Alpomish» dostoniga shubha bilan qaray boshladilar. «Alpomish» dostoniga nigilistlarcha munosabatda bo`lib, uning xalq asari ekanligini inkor eta boshladilar. Jumladan, A.Abdunabiev va A.Stepanovlar «Alpomish» dostoni xaqida yozgan maqolalarida<sup>1</sup> vul`gar sotsiologizm zaminiida turib, eposning motivlari yaratilgan davrdan uzib olinib talqin qildilar va xalqqa qarshi, reaktsion deb e`lon qildilar.

Ammo ilmiy jamoatchilik dostoniga nisbatan bo`lgan bunday qarashlarni qattiq qoraladi. Ayniqsa, 1954 yil iyul` oyida Moskvada SSSR xalqlari eposini o`rganish masalalariga bag`ishlanib o`tkazilgan kengash katta ahamiyatga ega bo`lgan. Kengashda A.K.Borovkov, X.T.Zarifov, O.Valitova va boshqalar «Alpomish» dostonlarining xususiyatlarin ob`ektiv, ilmiy jihatdan to`g`ri talqin qilib berdilar, dostoniga nigilistlarcha munosabatni qattiq tanqid qildilar. Respublika matbuotida ham «Alpomish» dostoni to`g`risida munozara va mulohazalar chiga boshladi. Ana shu munozarani 1956 yilda adabiyotshunoslar N.Shukurov, S.Mirzaev va X.Doniyorov boshlab berdilar. «Sharq yulduzi» jurnalining 1956 yilning 2-sonida ularning «Alpomish» dostoni xaqida» nomli katta maqolasi chiqdi. Avtorlar o`z maqolasida A.Abdunabiev va A.Stepanovlar «Alpomish» dostoning g`oyaviy

<sup>1</sup> Ҳаранг: А.А.абдунабиев А.Степанов «Об эпосе Алпамыш», газ. «Правда востока» 1952 год, 29 января, и «Под флагом народности» журн. «Звезда Востока» 1952г., №2 ва бош³алар

mazmuni buzib talqin qilinganliklarini konkret faktlar bilan asoslab berdilar. Dostonning g`oyaviy asosini qahramonlik, insonparvarlik, vanparvarlik, vafodorlik, samimiy do`stlik kabi olajanob ideyalar tashkil qiladi deb to`g`ri baho berdilar.

1956 sentyabrda Toshkentga fanlar akademiyasining A.M. Gor'kiy nomidagi jahon adabiyoti instituti va O`zbekiston SSR fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti tomonida «Alpomish» eposi muhokamasiga bag`ishlab o`tkazilgan regional kengashda dostonning g`oyaviy mazmuni, uning badiiy, xalqchil xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar aytadi. Bu kengashda 20 ta doklad tinglandi. Kengash faqat «Alpomish» dostonini o`rganish uchun emas, balki umuman sovet fol`kloristikasini o`rganish va tadqiq qilishda muhim rol' o`ynaydi.

## **TEKSHIRISH SAVOLLARI.**

1. Fol`klor asrlarining tur va janrlar rang-barangiligi qaysi ehtiyoj sabablarga asosan tug`iladi?
2. Fol`klor asarlari janrlariga ta`rif bering?
3. Xalq dostonlari deganda nimani tushunasiz.
4. Dostonlarda turkumlik ta`rifini bayon eting.
5. «Alpomish» dostonining versiya va variantlari.

## **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. Tur va janrlar rang-barangligi og`zaki ijodning inson hayotini tarixiy taraqqiyoti va boyligini ifodlovchi omillar sifatida.
2. Xalq dostonlarining o`ziga xos xususiyatlari.
3. «Alpomish» dostoning variantlari va versiyalari haqida ma'lumot.

## **ALISHER NAVOIY VA FOL`KLOR**

O`zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy butun ijodiyoti davomida xalq ijodiyotini ardoqlab yuksak baholadi, butun ijodiyotida undan unumli foydalandi. Alisher Navoiy asarlarni qunt bilan o`qib chiqar ekanmiz, uning tarix, tazkira, ilmiy va badiiy asarlarni mukammal bilgani, ulardagi fol`klor materiallaridan ijodiy foydalanganligini ko`ramiz. Alisher Navoiy asarlarida Arastu, Aflatun, Suqrot, Bo`hrot, Luqmon kabi antik dunyo madaniyatini, sa`nat va ulug` kishtlar haqidagi latifa va afsonalar o`rin olgan. Alisher Navoiy qadimiy davrlarga oid mif va afsonalardan, ertak va qissalardan, ularning syujeti va kompozitsiyasi, obrazlar sistemasi va badiiy tasvir vositalaridan bahramand bo`ldi. Alisher Navoiy xalq og`zaki ijodi materiallaridan foydalanan ekan, ularni muayyan g`oyaviy estetik maqsadlarda ayrimlarini aynan saqlab qoldi yoki qaytadan ijodiy ishladi, o`zgartirdi. Bu hol Alisher Navoiyga ijodiy maktab bo`ldi. Alisher Navoiy xalq ijodidan foydalanshiga unga tanqidiy ko`z bilan yondoshdi. Shuning uchun fol`lkor asarlari Alisher Navoiy ijodida sayqallanib, takomillashib bordi. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidan kelitirilgan. quyidagi misollar ulug` shoirning fol`klorga munosabatini yaqqol ifodalaydi:

Yonmoqta bu ishqi jovidona,  
Maqsudim emas edi afsona.  
Mazmuniga bo`ldi ruh mayli,  
Afsona edi aning tufayli.  
Lokin chu raqamg`a keldi mazmun,  
Afsona anga libosi mavzui.

Alisher Navoiy qadimgi mif va afsonalarni ham yaxshi bilgan. Uning Qayumars, Xutang, Tahmuras va Jamshid xaqidagi fikrlari bunga dalildir. Alisher Navoiy «Xamsa»sini ham fol`klorsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Chunki, «Xamsa»dagi dostonlar, qahramonlar syujetlar yoki bavosita halq og`zaki ijodiga bog`liqdir. Jumladan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni sharqda mashxur bo`lgan Xisrav va Shirin xaqidagi afsona va rivoyatlar hamma xamsachilikining an'anaviy mavzui va obrazlari zaminida yaratilgandir. Xisrav va Shirin xaqidagi afsona va xalq ijodiyotining mahsuli. Uning syujetida zaminida yotgan tarixiy voqealar asrlar davomida xalq tomonidan qayta ishlanib, badiiy asar yaratishga bir reja bo`lib xizmat qildi. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni ham XII asr boshlaridayoq paydo bo`lgan Majnun xaqida qissa va rivoyatlardan foydalanish asosida yaratilgan. Bu asar kompozitsiyasi, uslub va usul jihatdan ham fol`klorga yaqin turadi.

«Sa’bai sayyor» dostoniga esa Alisher Navoiy Sharq halqlari orasida mashhur bo`lgan Bahrom Go`r afsonasini asos qilib olgan. Navoiygacha badiiy adabiyotda Bahrom Go`r an'anasi mavjud edi. Navoiy bu an'analarni qunt bilan o`rganib chiqdi. Natijada yangi va original doston yaratdi. U Bahrom va Dilorom afsonasini yangi planda qaytadan ishladi. Bahromning sargushatlari asarning markaziy mavzui bo`lgan asarning problemasiga to`liq muvofiqlashtirdi, obrazlarni yangicha talqin qildi. Yangi obrazlar kiritdi. Xalq og`zaki ijodi materiallari asosida tamomila yangi etti hikoya yaratdi.

Alisher Navoiy Iskandar haqidagi xalq afsonasi va hikoyalaridan «Saddi Iskandariy» dostonida muvaffaqiyatli foydalandi. Iskandarning tug`ilishi, yoshlik yillari, ta’lim-tarbiyasi, Faylaqusning vafoti va Iskandarning Doro bilan to`qnashuvi va Iskandarning taxtga chiqishi, Eronni egallab olishi, Kashmirga yurish qilib zolim Malluni engishi, Mag`ribda vahshiy larga qarshi jangi, Shirvon o`lkasida sad barpo etishi hamda dengiz sayohati afsonalaridagi Iskandar sarguzashtlarining asosini tashkil qiladi. Bu epizodlar ta’sirida Alisher Navoiy tarixiy rivoyatlar, xalq afsonalari va rivoyatlariga murojaat qiladi. Natijada original dostonni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, «Xamsa» qahramonlarining vujudga kelishi va takomili qo`hna xalq tarixiga va xalq ijodiyotiga borib taqaladi. Xisrav, Shirin, Qays, Ibrohim, Iskandar kabi obrazlar aslida tarixiy prototiplar asosida vujudga kelgan bo`lsa ham, boshlab ular xalq fantaziyasi, badiiy ijodkorligi bilan yo`g`rilib, fol`klor qahramonlari sirasidan o`rin oldi, keyin yozma adabiyot obidalari tomon yo`l oldi, kamolot cho`qqisiga ko`tarildi.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy o`z ijodi davomida xalq poetik ijodiyotiga yanada ko`proq e’tibor berdi. Alisher Navoiy xalq poetik ijodiga rang-barang gullar bilan to`lib-toshgan bepoyon bo`ston, duru gavharlarga kon tubsiz dengiz deb qaraydi. Ijodkor

<sup>1</sup> Н.Маллаов. Алишер Навоий ва хал<sup>3</sup> ижодиёти. Тошкент, 1974, 184-бет

xalq Alisher Navoiyni beqiyos darajada sevgan. Shular uchun ham uning o`lmas siyimosini og`zaki ijodida, ko`p sonli afsonalarda yaratib qoldirgan. Biroq Navoiy yashagan davrda ham, undan keyin ham Alisher Navoiy haqidagi yaratilgan asarlarni yozib olish va to`plash odat bo`lmagan. Alisher Navoiy haqidagi afsonalarni to`plash va ommalashtirish faqat 23-yillardan boshlandi. Bu sohada A.A.Semyonov, E.E Bertel's, I.Ogaliev, S.Abdulla, Berdi Qorboboev, M.Afzalovlar va boshqalar katta xizmat qildilar. Ulug` shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan nashr ettirilgan «Dono Alisher» to`plami bu sohada qilingan ishlarning eng qimmatlisidir. Alisher Navoiy to`g`risida yaratilagn afsonalarda Alisher Navoiy obrazi tarixiy qiyofada emas, balki xalq himoyachisi xalq orzu-umidlarining ifodachisi siftida gavdalanadi. Bunday afsonalarda Alisher Navoiy iste'dodli shoir, tadbirli davlat arbobi, dono, najotkor, oliyhimmat bir shaxs, zulmga,adolatsizlikka qarshi kurashgan xalq farzandi sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy obrazi o`zbeklar orasidagina emas, balki turkman, tojik va qirg`izlar o`rtasida ham tarqalgan, «Navoiy bilan cho`pon», «Mir Alisher»», «Sulton Husayn», «Podshodan dod», «Nima uchun», «Ziyod botir», «Olijanob inson» kabi o`nlab asarlarda Navoiy obrazi namoyon bo`ladi. Chunonchi, «Navoiy bilan cho`pon» afsonasida otasidan qolgan qo`ylarning ko`paytirib 700 ga etgani, ikki yuzini cho`ponga mehnat haqi uchun qoldirib, 500 qo`yni bozorga haydashi, pulini podsho o`lganida berasizlar deb xaridorlarga bepul tarqatib yuborgani bayon etiladi. G`azablangan podshoga Navoiy:

«Qo`yni olib kelgan odamlar: «Ishqilib podshohimiz o`lmasin. Podsho o`lsa Navoiy pulini qistaydi, deb sizni duo qilib yurishadi» deb donolik bilan javob berdi. Tarixiy faktlardan ma'lumki, Navoiy oila qurmagan. Lekin ijodkor xalq ulug` shoir hayotidagi ana shu etishma tomonlarini o`z fantaziysi bilan to`ldiradi. Navoiy haqida va uning sevgilisi Guli to`g`risida o`nlab afsonalar yaratdi. Afsonalarning ko`pchiligida hikoya qilinishicha, Navoiyning dushmanlari Guli va Navoiy o`rtasidagi sevgiga to`g`anoq bo`ladilar. Navoiyning dushmanlari undan qasos olish maqsadida Gulini saroyga, Husayn Boyqaro xaramiga keltiradilar. Navoiy qattiq qayg`uradi. Guli zahar ichib o`ladi. Navoiy umrining oxirigacha Guli muhabbatiga sodiq qoladi. Yana bir qator afsonalarda Navoiy Husayn Boyqaroga qarama-qarshi qo`yiladi. Bunday afsonalarda Navoiy va Xusayn Boyqaro munosabatlari bir tarzda tasvirlanmaydi. Ba`zi afsonalarda (masalan, «Pullar qayoqqa ketayapti», «Menda ham shuncha», «Kim avval ko`rdi» va boshqalarda) Sulton Xusayn asosan ijobiy qiyofada berilsa, yana bir xil afsonalarda (masalan, «Ot nimadan kului», «Kim tentak», «Biz odam emasmi» va boshqalar) Sulton Xusayn Navoiyga nisbatan birmuncha go`lroq va kaltafahmroq kishi sifatida gavdalanadi.<sup>1</sup> Xulosa qilib aytganda, xalq og`zaki asarlarida Alisher Navoiy obrazi muhabbat bilan yaratiladi. Ularda mubolag`a, badiiy fantaziya bor. Alisher Navoiy to`g`rsidagi xalq afsonalari tarixiy hujjat emas, balki ularda xalqning orzu istagi, maqsad-intilishlari, fanatziyasi etakchidir. Shu bilan birga, xalq afsonalarida Alisher Navoiy obrazi shu darajada demokratlapshtiriladiki, u dehqon, mardikor, bog`bon, kosib va shu kabi toifadagi kishilar sifatida tasvirlanadi. Bunday asarlarda Alisher Navoiy o`z hozirjavobligi,

<sup>1</sup> Алишер Навоий ха<sup>з</sup>идаги афсоналар ва уларнинг атрглича таҳлили. Е.Э.Бертельснинг «Навоий» ва Н.Маллаевнинг «Алишер Навоий ва хал<sup>3</sup> ижод»

yumori, o`tkir so`zi bilan afandiga (tojiklarning Mushfiqiysi va turkmanlarning Kaminasiga ) o`xshab ketadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy obrazini yaratish sohasida o`zbek sovet adabiyotida ham yangi bosqich boshlandi. O`zbek sovet adabiyotida Navoiy xaqida turli janrlarda asarlar yaratildi. Oybekning «Navoiy» romani hamda «Guli va Navoiy» dostoni, Uyg`un va Izzat Sultonlarning «Alisher Navoiy» she'riy dramasi, L.G. Batning «Hayot bo`stoni» povesti, Mirkarim Osimning «Zulmat ichida nur» , Inoyatulla Maxsumming «Navoiy Astrobodda» muzikali dramasi, «O`zbekfil'm» kinostudiysi tomonidan yaratilgan «Alisher Navoiy» fil'mi shular jumlasidandir. XIX asrning II yarmida O'rta Osiy xalqlari hayotida ro`y bergen eng muhim hodisa feodal munosabatlari asosiga qurilgan o`zbek xonliklarining inqirozga yuz tutishi va O'rta Osiy erlarining birin-ketin Rossiya sostaviga qo`shib olinishi. O'rta Osiyo Rossiya bosib olinishi mahalliy xalq o`rtasida sotsial tabaqalanishni kuchaytirdi va mehnatkash ommasining sinfiy ongini oshirib, o`z istiqbollarini ravshanroq aniqlab olish imkoniyatini ochib berdi. Zulm va zo`rlikka qarshi va xalqning isyonkorlik harakatlari kuchaydi.

1905 yil va undan keyin ijtimoiy hayotda ro`y bergen muhim tarixiy hodisalar, proletar sinfi raxbarligi ostida olib borilgan ozodlik kurashi va revolyutsion harakatlar xalq og`zaki badiiy ijodida ham aks etmay qolishi mumkin emas edi. Bu davr xalq og`zaki ijodi o`zining erk va ozodlik uchun kurash g`oyalalarini targ`ib qilishi bilan ajralib turadi. Bu g`oyalalar 1905 yil revolyutsiyasi arafasida tug`ildi. Masalan, 1905 yil revolyutsion arafasida Samarqand atroflarida dehqonlar noroziligining ifodasi sifatida Namoz harakati boshlandi. Namoz ismli kishi rahbariligidagi ko`tarilgan bu xalq harakati fol`klorda zo`r mahorat bilan kuylandi. Xalq baxshilari Namozni xalq dushmanlaridan, zolimlardan o`ch oluvchi qahramon sifatida aks ettirdi. Xalq shoiri Nurmon Abduvoy o`g`li bu voqeaga bag`ishlab «Namoz» dostonini yaratdi va Namozning qahramonliklarini xalq o`rtasida kuylab, xalqni ozodlik kurashiga ilhomlantirdi. Ma'lumotlarga qaraganda Nurmon baxshi shu asari uchun Kattaqo`rg`on hokim tomonidan uch yarim yil qamoqqa hukm qilingan. Namoz harakatidan chor hukumati va Buxoro amiri jiddiy tashvishga tushgan edi. Shoир bu holni xaqqoniy aks ettirgan:

Bedav minib sag`risini silatdi.  
Amir, podshoni taxt ustida yig`latti..  
Sollotlarga os bo`riday doridi,  
O`n to`rt bo`lis ushlayolmay horidi...<sup>2</sup>

Bu davrdagi xalq og`zaki ijodi asarlarida, jumladan, qo`shiqlarda mavjud la`natlash motivlari, hokim, bek va amaldoralarning kiridkorlarini fosh etish tendentsiyasi keng aks ettirildi. Masalan, mehnatkash xalq ommasining kayfiyati, psixologiyasi va kurashlari qo`shiqlarda shunday kuylanadi:

Xonu bekni er yutsin,  
Erning qa`riga ketsin,  
Qozilarning qorniga,

<sup>2</sup> ғ.Каримов «озбек адабиёти тарихи», III китоб «озитувчи» нашриёти, Тошкент, 1966, 282-бет

### Qora qoziq qoqlisin.<sup>3</sup>

1905 yillarda mehnatkash xalq ommasida kuchaygan revolyutsion ruh xalq og`zaki ijodida kengroq aks ettirila boshladi. Birinchi jahon urushi va 1916 yillarda zolimlarni tanqid qiluvchi asarlar qatorida podsho hukumatini ag`darishga chaqiruvchi ashula va qo`shiqlar yaratildi. Bu asarlarda mahalliy va chor hukmdorlari g`azab va nafrat bilan fosh etildi.

Ayniqsa, 1916 yilgi mardikor olish voqeasi bilan yaratilgan «Nikolay qon jallo», «Ming la`nat», «Zolim», «Poyingizni yurgizgan» kabi xalq qo`shiqlari «Chigirtka», «Qahatchilik» kabi termalar, Fozil Yo`ldosh o`g`lining «Jizzax qo`zg`oloni» Muhammadqul Jomrot o`g`li Po`lkanning «Mardikor» dostonlari va boshqa asarlar revolyutsion kayfiyatni ifoda etuvchi og`zaki ijod namunalaridir.

Quyidagi qo`shiqlarda davr va xalqning revoyutsion ruhi, mavjud tuzumdan norozilik kayfiyati, adolatli va ozod hayot uchun kurashga chaqirish motivlari yaqqol ifodalangan:

Oshqovoqni qaynatib,  
Yog`ini olgan xo`jayin,  
Mehnatkashni ishlatib,  
Jonini olgan xo`jayin.  
Sayid Ahmad noming baland,  
Nomingdan toming baland,  
Yigitlarga qo`l qo`ygan,  
Padaringga ming la`nat.  
Poezdiningni jildirgan,  
O`txonasi bilan do`ngalagi,  
Dvinskaga ketishdi,  
Mardi yigitning bir bo`lagi.  
Dvinskaga yo`l bo`lsin,  
Taxti toji qul bo`lsin.  
Yigitlarni qiynagan,  
Nikolaying yo`q bo`lsin.

1916 yillarda yaratilgan xalq qo`shiqlarining asosiy maqsadini chorizmini «Nikolay zolim» hukumatin ag`darib, yo`q qilish g`oyasi tashkil etadi.

Fozil Yo`ldosh o`g`lining 1916 yilgi milliy ozodlik qo`g`oloniga bag`ishlb yaratgan «Jizzax qo`zg`oloni», o`zbek mehnatkashlarining Oktyabr` revoyutsiyasi arafasidagi siyosiy ongi va sinfiy hamkorligi masalalarini aks ettiruvchi «Mamatkarim polvon» hamda Po`lkanning mardikor olish voqeasi munosabati bilan yaratilgan «Mardikor» dostonlari muhim ahamiyatga egadir. Bu dostonlar o`zbek mehnatkashlarining hayotida Ulug` Okyatbr` revolyutsiyasi arafasida sodir bo`lgan ijtimoiy siyosiy voqealar tasviriga bag`ishlangan bo`lib, ularga birinchi jahon urushi va 1916 yil mardikor olish munosabati bilan mehnat ahlining ongida, tushunchasida va ijtimoiy faoliyatida yuz bergen juda katta o`zgarishlar o`z ifodasini topgan.

---

<sup>3</sup> ғ.Каримов «озбек адабиёти тарихи», III китоб «озитувчи» нашриёти, Тошкент, 1966, 282-бет

«Mamatkarim polvon» dostoni. «Mamatkarim polvon» dostoni Fozil o`gli Yo`ldosh tomonidan yaratilgan bo`lib, bu doston temasi yaratilish tarixi, voqealarning xronologik tartibi jihatidan original epik asardir.

Doston revolyutsiyagacha bo`lgan o`zbek mehnatkashlarining ezilishi, xo`rlanishi, bunga qarshi revolyutsion ozodlik harakatining ko`tarilish tasvirlangan. Avtorning asosiy g`oyasi bosh qahramon «Mamatkarim polvon» obrazida mujasamlashgan. Bu obraz real tarixiy shaxs bo`lib, Jomboyning Bekat qishlog`idandir.

«Mamatkarim polvon» dostonining qisqacha mazmuni quyidagicha Bekat qishlog`ida yashovchi bir kampirning Muhammadkarim ismli qo`rmas, dovyurak bir so`zli o`g`li bo`ladi. Jismoniy jihatdan baquvat bo`lgani uchun unga xalq «polvon» laqabini qo`shib, Mamatkarim polvon deb ataydi.

Atrofigagi kambag`al mehnatkashlarning boylar zulmidan nihoyat darajada azob chekayotganini ko`rgan Mamatkarim xalq manfaatini zolimlardan ximoya qilishga bel bog`laydi. U xalq manfaati yo`lida qozidan, mingboshidan islom dinining namoyandalaridan qo`rqmaydi. Kunlarning biri amaldorlar tomonidan bozorda, xalq o`rtasida jazolanayotgan dehqonlarga duch kelib qoladi. Bundan g`azablangan Mamatkarim dehqonlarni ozod qiladi, zulmkorlarni quvib yuboradi. Mamatkarim o`z atrofiga kambag`allarni to`play boshlaydi. Kambag`allar orasida tushuntirish ishlari olib boradi. Shuning uchun mehnatkashlar Mamatkarimni o`zlarining himoyachisi, yo`lboshlovchisi deb tushunadilar. Mamatkarim boshliq kambag`allarning bunday zo`r harakatidan tashvishga tushgan ekspluatator sinf vakillari, jumladan, Mamatkarimning tog`asi Eshmatboy mingboshi turli hiyla-nayrang bilan polvonni bu yo`ldan qaytarmoqchi bo`ladi. Ekspluatator sinf vakillari Eshmatni uning oldiga «nasihatgo`y» qilib yuboradilar. Qancha urinmasin Mamatkarimni yo`ldan og`dira olmaydi, aksincha uning g`azabini qoldiradi. U boyga qarab:

Mamatkarim deydi mening o`zimni,  
Sarg`aytarman sening gulday yuzingni,  
Ochulansam o`yib ikki ko`zingni,-deydi

Yana bir joyda esa:

Kim zo`r bo`lsa, jazosini berman,  
Kambag`al, nochorning tani bo`laman

degan so`zlar bilan o`zining qat`iy pozitsiyasini bayon qiladi. Mamatkarimning osonlikcha qo`lga tushira olmagan hokim sinflar o`zaro til biriktirib, bo`htonlar uyushtiradilar. Natijada polvonni bir marta 15 kun, 2-marta 6 oy muddat bilan Xo`jandga badarg`a qilishga erishadilar. Bu quvg`in va surgunda Mamatkarim chiniqadi. O`z atrofiga mehnatkashlarni yanada ko`proq to`playdi. Endi boylar, ruhoniyalar terror, jinoyatni ishga solib, polvonni oradan yo`qotishga, ya`ni suiqasd uyushtirishga axd qiladilar. 3-4 kallakesarni yollab kechasi Mamatkarim uyiga qaytib kelyotganida uni otib o`ldiradilar. Uning o`limidan ko`p o`tmay Oktyabr` revolyutsiyasi g`alaba qozonadi, dushmanlar jazolanadi. Shoир bu dostonda xaq va adolat idealini ilgari suradi. Mamatkarim garchi real, tarixiy shaxs bo`lsada, shoир uni tipiklashitirb kollektiv obraziga aylantirdi. Umuman olganda, «Mamatkarim polvon» dostoni o`zbek sovet fol`klorida dehqonlar ommasining revoyutstiyasi arafasidagi hayoti va intilishlaridagi tarixiy burilishni keng va xar tomonlamama tasvirlab borgan

birinchi epik asardir. Doston katta ma'rifiy va estetik qimmatga ega bo'lishi bilan birga, siyosiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik.

«Jizzax qo'zg'oloni» dostoni Jizzax qo'zg'oloni dostoni ham Fozil Yo'ldosh o`g`li tomonidan yaratilgan bo`lib, unda 1936 yilad O'rta Osiyoda shu jumladan, O`zbekistonda yuz bergen milliy ozodlik qo'zg'olonlarining eng ko`zga ko`rinarlisi Jizzax qo'zg'oloni voqeasi tasvirlanadi. Doston birinchi jahon urushi olovining alanga olib ketishi bilan boshlanib, urushning aktiv ishtirokchilari, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Chor Rossiyasi, Turkiya ekanligi haqqoniy ko`rsatiladi.

Dostonda bayon qilinishicha, bu urush kundan-kun avj oladi, kengayib boradi. Rossiya podshosi kuchsizlanib qoladi. Bundan taxlikaga tushgan Nikolay o`z amaldorlari ishtirokida katta majlis chaqiradi. Bu majlisga yig'ilganlar Rossiya mustamlakasi hisoblangan o`lkalardan front va front orasidagi ishlarga odam olishni taklif qiladilar. Ammo Nikolay o`z mustamlakalaridan oddiy kishilar qo`liga qurol berib, askarlikka chaqirish xavfli ekanini aytib, bu taklifni rad etmoqchi bo`ladi. Lekin oxirida frontdagi ahvolning nihoyat darajada og`ir ekanligini e'tiborga olib, front va front orqasidagi ishlar uchun xar 5 xonadondan bitta odam olish haqida farmon chiqadi. Farmonda odam berishni isatmagan kishi o`z o`rniga odam yollab yuborish mumkin deyiladi. Bu bilan puldor odamlar va ularning o`g`illariga osonlik tug'iladi. Mehnatkash xalq bu xabarni eshitib, shahar va qishloqlarda norozilik harakatlari boshlandi. Bu norozilik harakatiga xalq o`rtasidan chiqqan Toyir, Qurvonboy kabi odamlar boshchilik qiladilar. Olomon ba'zi amaldorlarni o`ldiradi va Jizzax ustiga yurish qilib qo`rg`onni qurshab oladilar. Ruhoniylardan Muxtorxon eshon xalqni kurashdan voz kechishga, taqdirga tan berishga undamoqchi bo`ladi. Ammo qo'zg`olon xalqi unga qarshi:

Eshonsan, xalqning pirisan  
Shu dushmanlarning birisan,  
«Jannatga olib boraman» deb  
Sen xalqni aldab yuribsan,

degan so`zlar biln eshonning kirdikorlarini fosh etadi. So`ngra qo'zg`olonchilar bilan soldatlar o`rtasida jang bo`ladi. Shundan so`ng Jizzaxga Toshkent va Samarqanddan qo`shin keladi, ular qo'zg`olonchilarni rahmsizlik bilan jazolaydilar. Shu tariqa qo'zg`olon bostiradilar. Mardikorlikka olish boshlanadi. Dostonda mardikorlarning sarson-sargardonligi tasvirlanadi. Doston «Hamma xalq ozodlikka chiqib, murod-maqsadiga etdi. Buni xalq shoiri Fozil Yo'ldosh aytdi» kabi so`zlar bilan yakunlanadi. Xulasa qilib aytganda, Jizzax qo'zg`oloni 1916 yilda O`zbekistonda yuz bergen tarixiy voqealarni aks ettirgan asardir.

**«Mardikor dostoni».** Mardikor dostoni 1927 yilda Muhammadqul Jomrot o`g`li Po`lkandan yozib olingan. Bu dostonda ham revolyutsiyadan avvalgi o`tmish voqealari tasvirlanadi.

Doston mardikor olish munosabati bilan yuz bergen xalq g`alayonlarining tasviri bilan boshlanib, o`zbek mehnatkashlarining mardikorlikka yuborilishi, ular boshidan kechirgan mashaqqatlari tasviri va ular o`z vatanlariga qaytishi bilan yakunlanadi.

Po`lkan dostonida so`zalagan voqealarning shaxsan ishtirokchisidir. Chunki, Po`lkan ham mardikorlikka olinib, Rossiyadagi mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Shunga asoslanib, dostonni ma'lum darajada avtobiografik asar deb aytish mumkin.

Dostonda traditsion dostonlarga xos ko`p xususiyatlarni ko`rmaymiz. Unga traditsion dostonlarga xos izchil syujet yo`q. Bu asarda mardikorlikka olingan o`n minglab kambag`allarning his-tuyg`ulari, ularni chorizmga qarshi g`azab va nafrati mujassamlashganini quyidagi misralardan bilish mumkin:

Dod faryod Nikolayning dastidan  
Turkistonni hammasini voy-voylatdi  
Har besh uyg`a bir odam sop bo`zlatdi.  
Odamlarning yurak bag`rin bo`zlatdi.

Dostonda Rossiyaga jo`natilgan mardikorlarning azob uqubatlar chekib, oqu qorani taniganligi haqqoniy ravishda aks ettirilgan.

### **TEKSHIRISH SAVOLLARI:**

1. Xalq qahramoni Namoz obrazi fol`klor va realistik adabiyotda qay tarzda ifodalangan?
2. Yangi dostonlarda milliy ozodlik g`oyasini ifodalanishi.
3. Xalq baxshilari repertuarlarida zamonaviy masalasi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. Erk va ozodlik kurashi dolzarb mavzuga aylanganligi.
2. Xalq baxshilari repertuarlarida, tarixiy va zamonaviy tasviri.

## **MAVZU: «AFANDI LATIFALARI», «XALQ MAQOLLARI»**

### **REJA:**

1. *Latifa-sharq xalqlarining sevimli janri sifatida.*
2. *Afandi obrazining xalqchilligi.*
3. *Latifalarning badiiyligi, til xususiyati.*
4. *Maqol xalq donoligini ifodalovchi janr*
5. *Maqollarning o`ziga xos poetik tabiati.*
6. *Maqollarning tarixiy taraqqiyoti.*

### **ADABIYOTLAR:**

1. *Ribnikova M.A. Russkie poslovitsi i pogovorki M., 1961..*
2. *Sarimsoqov B. Maqollar. O`zbek fol'klorining ocherklari. T., I-t, 1988.*
3. *Yo`ldosheva F. O`zbek materiallarida Nasriddin Afandi obrazi. T., 1979.*

### **AFANDI LATIFALARI.**

Xalq og`zaki ijodining eng ommabop, qiziqarli, hajmi kichik janrlardan biri latifadir. Latifa arabcha so`z bo`lib, go`zal yoqimli degan ma`noni anglatadi. Latifa xalqning nozik did, fahmlilik bilan aytilgan kulgili kichik xikoyasidir. Bu janr Sharqda, ayniqsa, turkiy xalqlar orasida o`tmishda va hozirda ham Nasriddin Afandi nomi bilan mashhur. Afandi latifalarida xalq podsholar, amir amaldorlari, boylar, din-shariat peshvolari ustidan kulib, ularning zolimligini, insofsizligini va maishiy tubanligini fosh etadi.

Ko`pchilik xalq latifalarining qahramoni Afandi yoki Nasriddin Afandi bo`lib, u o`zining donoligi, hozirjavobligi, tadbirkorligi so`zamolligi bilan o`z dushmanlarini sharmanda qiladi, engadi. Ular ustidan zaharxandalik bilan kuladi.

Bir kuni afandiga xabar etkazishib:

-Shaharning qozisi aqldan ozibdi,-debdilar,  
Afandi bu xabarni eshitib, uzoq o`yga tolidi. Xabar keltirganlar uni bu holda ko`rib so`rabdilar:

- Afandi! Nega o`ylanib qoldingiz?
- Qozimizning azaldan aqli yo`q edi - debdi Afandi.
- Ajabo yana nimasidan ozdi ekan,- deb o`playapman.

Afandi obrazi o`zbek fol`korida pishiq va mukammal ishlangan sotsial tip darajasigacha ko`tarilgan. Qaysi bir Afandi obrazini olib qaramang, u xatti-harakati, xarakteri xususiyati bilan u yoki bu davrda yashagan konkret tarixiy shaxs sifatida

gavdalanimi. Unda davrining muhim axloqiy-etik normalari, davr kishilarining xarakter xususiyatlari bilan mujassamlashgan bo`ladi.

Temir xaqidagi Afandi latifalarini olib ko`raylik. Bu asarlarda yaratilgan Afandi obrazi Temurga qarama-qarshi qo`yiladi. Afandi go`yo Afandi Temur zamondoshi, u bilan yonma-yon yuruvchi, sayohatda ham, jangu jadallarda ham Temur bilan teng xuquqli aqlu idrokda ba`zan ustun konkret shaxsdir.

Quyidagi latifani olib ko`raylik:

Temurlang bir kuni Afandi bilan suhbatlashib, o`tirib, «uh» tortib yuboribdi va Afandidan so`rabdi:

- O`lsam mening jonim qaerda bo`lar ekan, jannatdami, do`zaxdami?

Afandi javob beribdi:

Begunoh kishilarni o`ldiraverib, jannatni ham to`ldirib yubordingiz. Sizga jannatda joy qolmagan bo`lsa kerak. Xafa bo`lmang, do`zaxning eng yaxshi joyiga o`tdan taxt qurib beradilar.

Ko`rinib turibdiki, Afandi hozirjavobligi, achchiq tili, xaqiqatgo`yligi, so`zamolligi, aql farosati bilan Temurbekdek raqibini engadi.

Nasriddin Afandi latifalarining tematikasi rang-barang. Ular oilaviy munosabatlarda ham, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham, ayrim kishilar nuqsonlardan ham, axloq odob masalalari ham ifodalanishi mumkin.

Afandi latifalari bizning zamonamizda ham yaratilib, kelinmoqda. Sovet davrida yaratilayotgan afandi latifalari yumoristik xarakterda bo`lib, ularda byurokratlar, amalparastlar, boqibeg`amlar, engil kulgi bilan tanqid qilinadi, eski turmush sarqitlari fosh etiladi:

Tramvayda ketayotgan Afandi qarshisida o`tirgan qizga tikilib turib so`raydi:

- Yaxshi qiz, bir boqishda yaxshi ko`rib qolish mumkinmi?
- Yo`q,-dedi qiz.
- Unda, ertaga qaerda uchrashamiz,-dedi Afandi.

## XALQ MAQOLLARI.

Fol`koring ommaviy janrlaridan biri maqoldir. Maqollar uzoq asrlar mobaynida og`izdan - og`izga o`tib, silliqlanib, xalqning dunyoqarashi, jamoatga munosabtini, uning tarixi va psixologiyasi qisqa formada aks ettiriladi.

Maqollar insoniyatning turmush tajribalari zaminida tug`ilgan va xalq donoligini ifodalaydigan qisqa, ko`pincha she`riy formadagi hikmatli so`zlar, chuqr ma`noli iboralardir.

Maqollar o`zining ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og`zaki ijodidagi boshqa janrlardan farq qiladi.

Maqollarda mehnatkash xalqning orzu umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, qisqasi barcha ijobiy fazilatlar aks etgan bo`ladi.

A.M.Gor`kiy xalq maqollarining roliga yuksak baho bergan edi. «Eng ulug` donolik so`zining soddaligidir»-deb yozadi u. Maqollar va qo`shiqlar xar vaqt qisqa

bo`ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo`ladi.<sup>4</sup>

Xaqiqatidan ham maqollar, matallar kishilarning ongini o`stirishda, odamlarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim rol' o`ynaydi. O`zbek xalq maqollari eng qadim zamonalardan beri xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan-avlodga eng yaxshi ma`naviy meros bo`lib kelmoqda. Xalq maqollarni birinchi marta to`plagan olim M.Qoshg`ariydir. U o`zining «Devonu lug`otit turk» asarida qadimiy qabila va urug`lar orasida keng tarqalgan maqollardan ko`plab namunalar keltiradiki, bu maqollar bizning davrimizda ham o`z qimmatini yo`qotgani yo`q. Aksincha xalq orasida turli variantlarida ishlatib kelinmoqda.

Masalan, «Devonu lug`atit turk»dagi

«Kishi olasi ichtin

Yilqi olasi toshtin».

«Osh totug`i tuz»

«Er so`zi bir»-kabi maqollar hozirgi kunda:

«Odam olasi ichida

Mol olasi tashida»

«Oshning ta`mi tuz bilan»

«Yigit so`zi bir bo`lar» kabi formalarda keng qo`llanib kelmoqda.

Klassik adabiyot namoyandalari o`z asarlarida xalq maqollaridan, hikmatli so`zlardan samarali foydalanganlar. Ulug` A.Navoiy o`zining «Xamsa», «Mahbub-ul qulub», «Xazoyinul maoniy», «Lison ut-tayr» asarlarida ko`plab maqollar va hikmatli so`zlarni ishlatgan, ularni ijodiy qayta ishlab g`oyaviy-badiiy jihatdan yuksak darajaga ko`targan.

Gulxaniy o`z asarlari hajviy kuchini oshirish, xalq xayoti bilan bog`liq va badiiy jixatdan puxtalash maqsadida «Zarbulmasal»da 400 dan ortiq xalq maqollari, xikmatli so`zlarni keltirgan.

O`zbek maqollarining tematikasi boy va xilma - xildir. Maqollarni g`oyaviy-tematik jihatdan juda ko`p turlarga ajratish mumkin. Jumladan: Vatan va vataparvarlik, botirlik va qo`rqoqlik va mardlik, oila va tarbiya va x.k. Umuman inson hayotining, insoniy munosabatlarining biron sohasi yo`qki, maqollarda ifodalanmagan bo`lsa.<sup>5</sup>.

Maqol o`git, nasihat xarakterida bo`lib, ikki qismdan tashkil topadi. Birinchi qismi voqeа hodisaning obrazli ifodasi va ikkinchi qismda hikmatli yakun beriladi. Masalan:

Hunari yo`q kishining, - birinchi qism,

Mazasi yo`q ishining, - hikmatli xulosa.

Xalq og`zaki ijodida maqol bilan bir qatorda matallar ham qo`laniladi. Bu ikki terminning farqini bilish kerak. Matal maqollardan farq qiladi. Matal ko`chma ma`noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turidir. Matal o`z ma`nosini

<sup>4</sup> М.Горький. Материалы и исследования. Т.1934 г. 114-бет

<sup>5</sup> «озбек хал<sup>3</sup> ма<sup>3</sup>оллари» (1978) т`пламида 'збек хал<sup>3</sup> ма<sup>3</sup>олларининг 30 дан орти<sup>3</sup> тқрларидан намуналар келтирилган.

boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z birikmalridan iborat bo'ladi. Masalan: Temirni qizig`ida bos.

Bu matal bo'lib, ko'chma ma'noda, ya'ni ishni o'z vaqtida bajarish zarur ma'nosida kelayapti.

## **MAVZU: TOPISHMOQLAR. XALQ DRAMASI.**

### **REJA:**

1. Topishmoq - xalq donishmandligining bebaho janri.
2. Topishmoq - tabiat va jamiyat voqeliklarini sirli, yashirin ifodalovchi janr.
3. Topishmoqlar tasnifi.
4. Xalq dramasi-voqelikni og`zaki ifodalovchi janr.
5. Kulgi xikoya repertuari xaqida malumot.
6. Masxaraboz va qiziqchilar xaqida ma'lumot.

### **ADABIYOTILAR:**

1. Aristotel.Poetika.T., 1980.
2. Xusainova Z. «O'zbek topishmoqlari».T.,1966
3. Qodirov M. O`zbek xalq og`zaki dramasi T., 1963
4. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar sa'nesi. T., 1971.

### **Topishmoqlar**

Xalq og`zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan yana biri topishmoqlardir. Topishmoqlar xalq donishmandligining mahsuli bo'lib, unda xalq xayotining barcha masalalari ifoda etiladi.(klassik adabiyotda chiston ham deb yuritiladi). Topishmoqlarda kishilarning tabiat hodisalari, mehnat qurollari, uy-ro`zg`or buyumlari, parranda va hayvonlar qisqasi atrof-muhitdagi barcha narsalarning belgilari va xususiyatlariga imo-ishora qilinadi. Aniqrog`i topishmoqda ma'lum bir hodisa yo narsaning belgisi, sifati va xususiyati atayin ochiq emas, balki ramz va ishora bilan aytildi. O'quvchi yoki tinglovchi o'sha ramz va ishora asosida topishmoqda yashiringan hodisa va predmetni topadi.

Topishmoqning kelib chiqishi, rivojlanishi dunyodagi barcha xalqlarda qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Ularda har bir xalqning o'z davri, yashash sharoiti aks etadi. Davrlar o'tishi bilan bo`lgan yangi-yangi topishmoqlar yuzaga kelaveradi.

Eramizgacha IV asrda yashagan Aristotel' topishmoq xaqida fikr yurititib, topishmoq mahorat bilan to`qilgan metforadir degan edi. Darhaqiqat, topishmoqlarda narsa-predmetning metaforik xususiyati asos qilib olinadi. Masalan:

Kichkina dekcha, ichi to`la mixcha.

Bu topishmoqda anorning yumaloqligi dekchaga, anor donachalari esa dekchaga tartib bilan terilgan mixchalarga qiyos etiladi. topishmoqlar tematik jihatdan rang - barangdir. Inson ko`ra oladigan har bir predmet, sezga oladigan har bir hodisa topishmoq uchun ob'ekt bo'ladi.

Topishmoqlar tuzilish jihatidan ko`pincha poetik formaga ega bo`ladi.  
Pak-pakana bo`yi bor,  
Etti qavat to`ni bor.

Bu topishmoq etti bo`g`inli barmoq vaznida bo`lib, unda piyoza ishora qilingan.

Odatda topishmoqlarda ayrim belgilar beriladi, lekin bu belgilar ko`chma ma`nodagi predmetni anglatadi. Masalan:

Bir chuqurda ming chuqur.

Bu erda chuqurdagi ming teshik emas, balki angishvona to`g`risidadir.

Tematik mazmunga qarab topishmoqlarni shartli ravishda quyidagi gruppalarga bo`lish mumkin:

Inson va uni tana a`zolari haqidagi topishmoqlar.

Kator-qator tosh qo`ydim

Jayron otni bo`sht qo`ydim (Tish va til)

Jiddiy predmetlarni aks ettiruvchi topishmoqlar

Past-past tomdan qor yog`ar (Elak)

Hayvonlar haqidagi ertaklar

Osti tosh usti tosh

O`rtasida jondor bosh (Toshbaqa )

Tabiat hodisalarini ifodalovchi topishmoqlar

Qo`lsiz oyoqsiz eshik ochar (Shamol)

XV asr boshlarida rus va Evropa madaniyati, texnika misli ko`rilmagan darajada o`sdi. Bu narsa topishmoqlarda ham o`z aksini topdi. Zamonaviy topishmoqlarda texnika yutuqlari progressiv hodisalar qo`llanilmoqda:

Quyidagi topishmoqlarda zamonaviy voqeа hodisalar, ifodalanmoqda:

Tunni qilar kunduzday,

Nur sochadi yudduzday. (Lampochka)

Tashqari yoz, dim olov,

Uychamizda muz qirov (Xolodil`nik)

Tovuq desa pati yo`q,

Oyoq, qo`l, qanoti yo`q,

Ming minglab ochar jo`ja

Buni toping Xolxo`ja (Inkubator)

Tinish belgilari to`g`risidagi topishmoqlar:

Olmasang yarim nafas,

Yo`ldan o`tgani qo`ymas. (vergul)

### TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Topishmoqlar dunyo xalqlarida keng tarqalgan ommaviy janr xususiyatlarini gapiring.
2. Zamonaviy fan, texnika taraqqiyotni ifodalovchi yangi topishmoqlarning mavzu doirasi hayot mohiyatini aks ettirgan topishmoqlarga misollar toping.

3. Xalq dramasining paydo bo`ishi ijrochilari haqida ma'lumot bering.
4. Xalq dramasining nazariy amaliy ahamiyati xaqida tadqiqot ishlari olib borgan mualliflar kimlar?
5. Askiya janri ta'rifini bayon eting.
6. Payrovlar nima, lof janri belgilari nimadan iborat?

### TAYaNCh TUSHUNChALAR

1. Topishmoq chiston janrining o`ziga xos belgilari
2. Rus va o`zbek topishmoqshunosligining tadqiqotlari
3. Xalq dramasining repertuarini nima tashkil qiladi?
4. Askiya va uning payrovlari.

### XALQ DRAMASI

Xalq dramasi nihoyatda boy va xilma - xil bo`lib, o`zbek traditsion teatrining asosini takshil qiladi. Xalq dramasi og`zaki formada yaratilgan va ustadan shogirdga, avloddan - avlodga o`tib asrlar osha takomillashgan sa`natdir. O`zbek xalq teatrining qadimiy tarixi, kelib chiqishi taraqqiyot bosqichlari, aktyorlik mahorati va estetik printsiplari hozirgacha etarli darajada o`rganilgan emas.

Halq og`zaki dramasining asosiy xususiyati shundaki, unda ma'lum hajviy syujet, grimm va jonli ijrochisi, kul'minatsion cho`qqi, echim bo`lib, ikki va undan ortiq aktyor tomonidan, kostyum, grimm va jonli dekoratsiya yordamida ijro etiladi. Xalq og`zaki dramasining ijrochisi, aktyori masxaraboz va qiziqchi deb yuritiladi.

Masxaraboz va qiziqchilar hayotda uchraydigan, ro`y beradigan eng xarakterli, kulgili voqeа hodisalarни, tomoshabinga pantomima yoki dramatik hikoya vositasida gavdalantirib beradilar.

Halq dramasi Yusufjon Shakarjonov, Komilqori, Sulaymonqori Mirzaahmedov, Orifjon Toshmatov kabi sa`natkorlari repertuarida mustaqil o`rin tutgan.

Ko`pincha xalq og`zaki dramasida bir aktyor tomonidan ijro etiladigan dramatik pantomimalar masxaraboz va qiziqchilar teatrida salmoqli o`rin egallagan. Halq og`zaki teatrida bosh ijodkor hisoblangan masxaraboz, qiziqchi va qo`g`irchoqbozlar yaratuvchilik, ijrochilik hamda tashkilotchilik vazifasini bajargan.

Masxarabozlik va qiziqchilik halq og`zaki teatrining bir turi bo`lib, masaxraboz va qiziqchi shu teatrining artistdir.

«Odatda bazm mashshoqlarning soz-kuylari bilan boshlanib, keyin tartib bilan hofizlar ashula qilgan, raqqoslar o`ynagan va oxirida navbat masxarabozlarga berilgan. Har bir qaysi atoqli masxarabozlarga berilgan. Har qaysi atoqli masxaraboz yoki qiziqchi tomoshani o`z repertuaridagi ma'lum asardan boshlab, ma'lum asar bilan tugatishga intilgan. Mirrob masxarabozning to`dasi, masalan har davrada 5-10 o`yin ko`rsatgan»

Xalq og`zaki dramasi ijrochisi bo`lgan masxarabozlar nihoyat darajada o`tkir va qo`rqmas, jasur bo`lgan. Ular har doim xalq manfaatini himoya qilgan. Zulmkorlarni satira o`ti bilan kuldirgan.

Masalan, «Rais» nomli og`zaki amirlik va islom dinining ishonchli vakili bo`lgan amaldorlar masxara qilingan. Buxoro amirligida raislikning mavqeい nihoyatda katta bo`lgan. Raislar bozorma-bozor yurib savdo, ishlarini tekshirar, aholining axloqini, Qur'on va shariat talabalrini qay darajada bilishlarini nazorat qilgan. Raislar ko`pincha ko`chada istagan to`xtatib, uning muqaddas oyat va suralarini bilish-bilmasligini sinab ko`rar ekan. Agar javob bermasa o`sha zahoti tan jazosi berilar ekan.

Raisning changaliga tushgan odam pora bersagina qutilar ekan. Shuning uchun ham masxarabozlar xalqning raislarga bo`lgan noroziligini ifodalab «Rais» asarini yaratganlar.

Asarda raisning bir kunlik faoliyati aks ettiriladi. U mulozimlari bilan katta bozorga kirib keladi. Bir ikki kishini tutib Qur'on va shariatdan savollar beradi. Pora bergenlarni kechiradi, qolganlarni darra bilan urdiradi.

Rais tartib o`rnatuvchi xaridorlarga firib bergen sotuvchiga baqiradi. Qo`lga tushgan sotuvchi:

-Jon taqsir kechqurun uyingizga boraman, - deb zirrilaydi.

Rais esa:

-Esingda bo`lsin beyog` kelmagin hozircha savdo qilgan bo`lsang, shunday savdo qilaver,-deydi hoviridan tushib.

«Rais» - ekspluatator sinf vakillarining kirdikorlarini fosh qiluvchi kuchli satirkik asardir. Unda katta bir amaldor qamchilangan bo`lsa, «Xirmon ko`tarish» nomli boshqa bir og`zaki dramada bir to`da yirik amaldorlar fosh etiladi. «Mirob» komediyasida esa xalq suv muammosiga nisbatan o`zining demokratik nuqtai nazarini ifoda etadi.

«Sudxo`r aka jon berdi» degan asarda mol-dunyo uchun mukkasidan ketgan yuqori tabaqa vakillari tanqid qilinadi. Uning mazmuni quyidagicha: Sudxo`rning umri o`tib, o`limi yaqinlashib qoladi. U mol dunyoga ichi achib o`lim bilan olishadi. O`g`li kelib otasining jon bermayotganidan zorlandi va uning vasiyatini olib qochishga urinadi. Sudxo`r o`g`liga omborning kalitini berib, joni uziladi. Katta meros xo`jayini bo`lib olgan o`g`il xursandligidan sakrab-sakrab o`ynaydi.

## MAVZU: ASKIYA

### REJA:

1. Askiya so`z o`yini
2. Improvizatsiya
3. Payrovlar haqida ma'lumot
4. Lof va lofchilik

## ADABIYOTLAR:

1. Muhammadiy R. Askiya 1962
2. Razzoqov X. O`zbek xalq og`zaki ijodida satira va humor. T., 1965

Askiya o`zbek xalq og`zaki badiiy ijodining xushchaqchaq va kulgili janrlaridan biridir<sup>6</sup>. Askiya arabcha zakot so`zidan kelib chiqqan bo`lib, sof fikrli, o`tkir zehnli degan ma`nolarni anglatadi. Askiya ommaviy janr, u odatda xalq sayllarida to`ylarda va boshqa marosimlarda aytildi. Askiya aytuvchilarda hozirjavoblik, va donishmandlik talab qilinadi. Askiyada ikki yoki undan ko`p kishi ma'lum mavzu ustida tarafma-taraf bo`lib bahslashadi. Fikrlar kurashidan iborat, qochirish, o`xshatish, mubolag`a va boshqa ta`sir vositalari ustalik bilan ishlatiladi.

Askiyachi o`z «raqibining» fikriga nisbatan chuqur ma`noli chiston, original fikrlarini tezda aytish bilan ustun chiqishga urinadi. Ya`ni fikrlashda improvizatsiya yuz beradi.

Askiya janrining o`ziga xos xususiyatlari hozirjavoblik, go`yolik lutfdir. Askiyaning muhim sharti bahslashayotgan taraflar o`z vaqtida chuqur ma`noli, kuchli javob qaytarish, ko`p ma`noni anglatuvchi, so`zlarni ishlatish, so`z o`yinlari qilishdir.

Askiyaning muhim xususiyat so`z vositasida tinglovchilarda kulgi chiqarishdir. Buning uchun so`zlarning ko`chma ma`nolarida, turli laqablardan, frozeologik chatishmalardan jarg`on so`zlardan o`z o`rnida qo`llaniladi. Askiyani ijro etish protsessida uning mavzui borgan sari kengayib boradi. Bunday qaysi askiyachining tushunchasi keng bilimi boy bo`lsa o`sha engadi.

Askiya xalqimiz orasida qadim-qadimdan buyon sevilib, aytilib kelinayotgan janrdir. Tarixiy faktlar, memuar asarlar shuni ko`rsatadiki, askiya Navoiy davrida keng rivojlangan. Alisher Navoiy askiyachi Muhammad Badaxshiyni «askiyaning piri» deb atagan.

XVIII asrdan boshlab Qo`qon, Xiva va Buxoro xonliklarida xalq teatrлari tashkil topa boshladи. XIX asr o`ratalarida Sa`diy Maxsum, Shodmon qiziq, Normat qiziq, Zokir eshon, Mo`min qishloqi, Xolmat qiziq kabi qiziqchilar Bedieshum (Qo`qon xonligida qiziqchilarning piri) shogirdlari bo`lgan ekan.

O`zbek xalqining sevimli qiziqchisi va askiyachisi Yusufjon Shakarjonov Sa`diy Maxsumning tarbiyasini olgan deb yozadi R.Muhammadiev o`z monografiyasida.

Askiya janri o`tmishda boy amaldorlardan, mushtumzo`rlarni fosh qilish vazifasini fosh qilish vazifasini bajargan.

Askiyaning «Payrov», «Bo`lasizmi?», «O`xshatdim», «Qofiya», «Radif», kabi turlari mavjud. Bulardan tashqari ba`zi manbalarda askiyaning safsata, afsona va tutal usullari xam borligi xaqida ma'lumotlar keltiriladi. Askiyaning eng yuksak formasi «payrov»dir. Payrov Farg`ona, Toshkent va Jizzaxda keng rivojlangan. Namangan va uning chekka atroflarida askiyaning chandish shakli ayniqsa rivojlangan.

Payrov askiyaning mukammal ususli bo`lib, izchil fikrlar oqimi hisoblanadi. Payrov usulida ma'lum bir temaning ma`nosini boshdan oxirigacha echib boriladi. Askiyachilar payrovda tanlab olingan mavzuning doirasidan chiqmaydilar.

<sup>6</sup> Аския жанрини узо<sup>3</sup> йиллар мобайнида (Ю.Шакаржонов) олган деб олим ТошДУ доценти Р.Муцаммадиевдир. У 1962 йида «Аския» номли монографияси нашр этди.

Askiyaning ham o`ziga xos syujeti va kompozitsiyasi bo`ladi. Askiyaning kul'minatsion nuqtasi mazkur temaning eng chuqur mazmunini ifodalash momenti, ya`ni fikr g`alabasidir.

Askiyaning «Bo`lasizmi?», «O`xshatdim», «Gulmisiz? Rayxonmisiz? Jambilmisiz?» kabi formalarida askiyachi o`z raqibini biror shaxsiga shaxsning xatti –xarakatiga biror voqeа hodisaga nisbat beriladi.

Keyingi yillarda askiya usullari birmuncha boyidi. Yangi-yangi payrovlар yaratildi. «Ashula payrovi», «Kino asarlar payrovi» shular jumlasidandir.

Umuman askiya hayotda uchraydigan nuqsonlarni, eskilik sarqitlarini, tanqid qilish bilan cheklanmaydi. U ijobjiy hodisalarни ham targ`ib qiladi.

#### TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Latifa janrining Sharq xalqlari og`zaki ijodining sermahsul, keng tarqalgan ommaviy janri ekanligini tushuntiring.
2. Latifalarning tematik rang-barangilagini, xalq tarixiy badiiy ifodasi ekanligini qanday tushunasiz.
3. Eng ulug` donolik so`zning soddaligidir (M.Gor'kiy) tushunchasining mohiyatini xalq maqollarini misollarida tushuntiring.
4. Maqol va matal janrining o`ziga xosligi va farqlari asoslang.

#### TYAANCH TUSHUNCHALAR.

1. Latifa-yoqimli, nozik did bilan aytilgan kichik hikoya sifatida.
2. Latifaning fosh qiluvchilik qudrati xaqida.
3. Maqol va matallarning farqli jihatlari.

### **MAVZU: XALQ BAXSHILARI ERGASH JUMANBULBUL O`G`LI FOZIL YO`LDOSH O`G`LI**

#### REJA:

1. «Kunlarim» dostonida mehnatkash xalq fojialarining ifodalanishi.
2. Ergash Qo`rg`on dostonchiligining so`ngi yirik namoyandası.
3. «Kunlarim» (Fozil Yo`ldosh) tarixiy biografik asar sifatida
4. Fozil shoir termalari va dostonlarida xalq tarixinining badiiy ifodalanishi

#### ADABIYOTLAR:

1. Kahhorov. Yangi dostonlar.T., 1985
2. Ko`shmoqov M.Chechanlikda so`zga suvdayin oqib.T., 1978
3. Qo`shmoqov. «Baxshilar xazinasi» T., 1981.
4. Jamoa.Fozil shoir. T., 1973

## Ergash Jumanbulbul o`g`li

Ergash Jumanbulbul o`g`li o`zbek xalq poetik ijodiga o`zining barakli hissasini qo`shtan, ajoyib dostonlarini kuylagan atoqli shoirlardan biridir. U birinchi navbatda, xalq dostonchisi bo`lishi bilan birga, klassik adabiyotni yaxshi bilgan savodli shoirlardan biri edi. Ergash Jumanbulbul o`g`li o`z ijodida fol`klor va klassik adabiyotning ilg`or traditsiyalaridan, poetik priyomlaridan ustalik bilan foydalandi. Shuning uchun ham Ergash Jumanbulbul o`g`lining ijodida boshqa xalq shoirlari ijodidan tubdan farq qiladi.

Ergash Jumanbulbul o`g`li 1868 yilda Jo`sh qishloq sovetiga qarashli (Samarqand viloyati, Qo`schrabot rayoni) Qo`rg`on qishlog`ida halq tomonidan «bulbul» laqabini olgan dostonchi Juman shoir oilasida dunyoga keldi.

Qo`rg`on qishlog`i qadimdan dostonchilik taraqqiy qilgan, dostonchilarining dong`i Buxoro, Qarshi, Jizzax va boshqa joylarga tarqalgan joydir. Ergashning bobolari buvilari, otasi va amakilari shu qishloqning ko`zga ko`ringan dostonchilardan bo`lgan. Uning buvisi Tilla kampir o`z zamonasining o`tkir shoirasi edi. Amakisi Jassoq baxshi esa ko`p shogirdlar etishtirgan. Po`lkan ham undan ta`lim olgan.

Ergashning otasi mashhur dostonchi bo`lib, savodsiz kishi edi. Shuning uchun u Ergashning o`qimishli bo`lishini istaydi. Shu maqsadda 1875-1876 yillarda uni o`qishga beradi. Yosh Ergash Navoiy, Fuzuliy asarlarini zo`r havas bilan mutolaa qiladi, unda adabiyotga bo`lgan qiziqishi kuchadi. Terma, dostonlarini yod oladi, o`zi ham asta sekin termalarni yarata boshlaydi. Ergashni Buxoro madrasasiga joylashtiradilar. U madrasada 1884-1885 yillarda tahsil ko`radi. Iqtisodiy tomonidan qiynalganligi sababli madrasani tashladi. 1886 yilda otasi Jumanbulbul vafot etadi. 8 kishidan iborat oilani tebratish Ergash zimmasiga tushadi, juda qiynaladi. 1987-89 yillarda amaldor Qo`zibekka kotiblik qiladi. Ammo vabo kasali tarqalib, uning oilasidan bir necha kishi vafot etadi. Keyinchalik oilada bo`lgan fofiani eslab shoir shunday yozadi: «Mening boshimga tushgan savdoning adadi, poyoni yo`q. Men katta bir hovlida o`zim qoldim. Ikki ini, ikki singil, to`rt-besh qizdan, to`rt-besh xotindan ayrilib, qayg`u motamlar bilan dovdirab yurdim».

1885 yildan 1917 yilgacha Ergash shoir o`z qishlog`ida dehqonchilik bilan mashg`ul bo`ldi. Shu bilan birga qishloqma-qishloq yurib doston aytadi.

1918-1922 yillarda Ergash Jumanbulbul o`g`li Samarqand va Zarafshon okruglarining shahar va qishloqlarida doston aytib kezib yurdi. 1922-23 yillarda yana Qo`rg`on qishlog`iga qaytib kelib, o`z ijodi bilan shug`ullandi, shogirdlar tarbiyalay boshlaydi.

Ergash shoir 1924-25 yillarda Jo`shdagi Qoraqissa qishlog`ida bir xonali mактаб ochadi va muallimlik qiladi. 1925 yil kuzida Samarqandga keldi va bu erda Po`lkan bilan birgalikda o`z repertuaridagi dostonlarni yozib qoldirishga kirishdi. 1929-1936 yillarda Ergash shoir yana o`z qishlog`iga qaytib, asosan dehqonchilik ishlari bilan shug`ullandi. 1937 yil 12 mayda Qo`rg`on qishlog`ida vafot etdi

Ergash shoir Qo`rg`on qishloq dostonchiligining yirik vakilidir, o`z dostonlari bilan o`ziga o`lmas haykal qoldirdi. Qo`rg`on qishlog`idagi dostonchilik traditsiyasi

uzoq davom etdi. Ma'lumotlarga qaraganda bu erda XXI asrning ikkinchi yarmida 20 dan ortiq dostonchi etishgan.

Ergashning shoir bo`lib o'sishida momosi Tilla Kampir, Sulton kampir kabi shoiralarning, otasi va amakilarining ta'miri katta bo`lgan. Ana shular ta'sirida Ergash o`zbek xalq dostonlarining barcha go`zalliklarini o`rgana boshladi. Ergash shoirning Ulug` Oktyabr' sotsialistik revolyutsiyasiga qadar o'tgan hayoti mungli va fojiali bo`ldi. Ergash shoir kuylagan dostonlar o`zining g`oyaviy-badiiy yuksakligi bilan ko`zga tashlanib turadi. U «Go`ro`g`li», «Qunduz bilan Yulduz» kabi 20 dan ortiq traditsion dostonlarni, juda ko`p termalarni bilar edi. Bularning faqat yarmigina yozib olingan, xolos. Ergash shoir yozma adabiyotdan xabardor bo`lib, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab asarlarini yaxshi bilgani uchun ham uning dostonlari boshqa xalq shoirlari dostonlaridan ko`p jihatdan ustun turadi. Bu narsani Ergash dostonlarning tili, uslubi va boshqa poetik xususiyatlarida yaqqol sezish mumkin. U o`z asarlarida so`zlarni mumkin qadar tejab tergab ishlatishtga, bir-ikki bayot yoki band bilan bir hayotiy lavhani berishga intilardi. Ayniqsa, u tajnisli to`rtliklar va qofiya tuzishga mohir edi.

Ma'lumki, o`zbek fol'klorida eng mukammal ishlangan dostonlar orasida Go`ro`g`li tsiklidagi asarlar muhim o`rin tutadi. Go`ro`g`li nomi bilan bog`langan dostonlar soni qirqa boradi. Ergash shoir «Go`ro`g`li» dostonini juda sevgan kuylagan. Bu jihatdan shoirning «Armoning qolmasin» termasi xarakterlidir. Unda qahramon Go`ro`g`lining butun qilgan ishlari uning o`z tilidan gapirtiradi:

El qidirdim, hadsiz yurdim,  
Elni to`g`ri yo`lga burdim.  
Go`ro`g`li deb atalgandan so`ng,  
Ko`p dushmani tanho urdim.  
Urdim armonim qolmadi,  
Urgin armoning qolmasin.  
Chambilni qildim obod,  
Berdim doim qandu, novvat  
O`zbek, Turkman barini yig`ib.

«Kunduz bilan Yulduz» dostonida Avazning go`zal fantastik sarguzashti ifodalansa, «Ravshanxon» dostonida Go`ro`g`lining nabirasi Ravshanning chin muhabbati, chidamli va mardligi, do`stlik vaadolat motivlari tarannum qilinadi.

### Fozil Yo`ldosh o`g`li.

Fozil Yo`ldosh o`g`li 1872 yilda Samarqand oblast' Bulung`ur rayon Bo`dana qishloq sovetiga qarashli Loyqa qishlog`ida kambag`al dehqon oilasida tug`ildi. Uning otasi o`zbeklarning qirq urug`idan bo`lib, dehqonchilik, qisman chorvachilik, bilan shug`ullanardi. Loyqada kun o`tkaza olmagan Yo`ldosh aka oilasi bilan boshqa hamqishloqlari qatori Chelakka ko`chib boradi. Fozilning ota-onasi boylar eshigida xizmatkor bo`lib ishlaydi. Yo`ldosh ota 1877 yilda vafot etdi. Besh yoshida otadan etim qolgan Fozil onasi bilan yanada mashqqatli kunlarni boshidan kechiradi. Fozil 9 yoshidan boshlab boylarning molini boqadi, cho`ponlik qiladi. Shu taxlitda 19 yoshigacha dala-dashtda boylarning malayi bo`lib, cho`ponlik qiladi.

Fozil Yo`ldosh o`g`li keyincha yozgan «Kunlarim» termasida o`zining ayanchli o`tmishini shunday eslaydi:

Olti yoshda qo`msab - qo`msab otamni,  
Og`ir mehnat ezdi sho`rli onamni.  
Ena bola topolmadik bir nonni,  
Parcha non deb yig`lab o`tgan kunlarim...

To`qqizimda bel bog`ladim mehnatga,  
Cho`pon bo`ldim tushdim yana g`urbatga.  
Ishlab edim, lekin qoldim minnatda,  
Parcha non deb minnat chekkan kunlarim...

Fozil Yo`ldosh o`g`li taxminan 19-20 yoshlarida o`z qishlog`iga qaytadi va chorak tanob erida ishlab dexqonchilik bilan kun kechiradi. U o`qishga imkoniyat topmadi, savodsiz qoldi. Lekin Fozil yosh vaqtidan adabiyotga qiziqdi, mol boqib yurgan kezlarida do`mbira chertishni o`rgandi, mustaqil qo`shiqlar yarata boshladi.

Fozilning baxtiga o`sha paytlar Loyqa qishlog`ida uch aka-uka Yo`ldosh, Qo`ldosh va Suyar baxshilar bo`lib, Yo`ldosh shoir Fozilni o`z tarbiyasiga oladi. Dostonchilik repertuaridagi ko`p doston va termalarni yodlab oladi va mustaqil aytadigan bo`ladi. 25-26 yoshlarida halq o`rtasida sinovdan o`tib Fozil shoir nomini oladi.

Fozil shoir o`z talanti va iste'dodi tufayli 40 dan ortiq traditsion dostonni o`rgandi va ijod qildi. Uning og`zidan yozib olinib, H.Olimjon so`zboshi bilan nashr ettirilgan «Alpomish» dostoni eng mukammal hisoblanadi. Shoir repertuaridagi dostonlarning ba`zilari («Sanobar», «Nazar va Oqbo`tabek») xalqqa manzur bo`limgani uchun uning repertuaridan tushib qolgan, ba`zi dostonlarning motivlaridagi eski an`analarni o`zgartirib qaytadan ishlagan. Bu holni «Alpomish» «Farhod va Shirin» «Layli va Majnun» dostonlarida ko`rish mumkin.

Fozil shoir ajoyib fazilatlaridan biri uning zamonavyiligidir. U davr voqeahodisalarini o`tkir ko`zi bilan sezal oldi, o`z munosabtini bildirdi.

Ayniqsa, buni 1900 yillarda O`rta Osiyoning ko`p qismini chigirtka bosib ketishi munosabati bilan yozilgan «Chigirtka» sarlavhali qo`shig`ida sezish mumkin. Bu asarda ekinni chigirtka eb tugatgani, oqibatda qashshoqlik ortib, qimmatchilik boshlangani, ular hammasi mehnatkash boshiga tushgani hikoya qilinadi.

Bosib edi Andijon, Marg`ilonni,  
So`ngra o`tib qo`sh tashladi Qo`qonga,  
Kosiblarning qo`li bormay do`konga,  
Mehnatkashga ko`z olaytdi Chigirtka,  
Na erlarni xarob etdi Chigirtka.

Fozil shoir zamonaviy termalar yirik epik asarlar ham yaratdi. Uning «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo`zg`oloni» dostonlari shoirning ko`rgan eshitgan bevosita ishtirokchisi bo`lgan voqeahodisalar ta`sirida yaratilgandir. Biz shoirning «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo`zg`oloni» dostonlari to`g`risida yuqorida fikr yuritdik.

«Ochilov» dostonda shoir bosmachilikning sinfiy mohiyatini ochib tashladi, bosmachilik harakatining tashkiliy ravishda tuzilgan aksilinqilobiy harakat ekanligini

fosh qildi. 1920 yilda ichki kontrrevolyutsion kuchlar va chet el imperialistlarining yordami bilan Samarqand oblastida Ochilov ismli qo`rboshi boshchiligidagi bosmachilik harakati avj oldi. Dostonda Sovet hokimiyati rahbarligida xalqning bosmachilarga qarshi olib borilgan kurash tasvirlangan.

1938 yilda Fozil Shoir Qozog` istonga Jambulning 90 yillik yubileyga boradi. U bilan suhbatda bo`ladi. Shu munosabat bilan shoir «Jambul» she`rini yaratadi.

Fozil shoir 1940 yilda SSSR Yozuvchilar soyuziga haqiqiy a`zo bo`lib saylandi. Bularning barchasi Fozil otaning kuchiga kuch, g`ayratiga-g`ayrat qo`shdi. Umumxalq ishiga, jamoat ishlariga aktiv ishtirok eta boshlaydi.

II jahon urushi yillarda shoir o`z qalamini dushmaniga qarshi qaratdi. Uning urush yillarda yaratgan «Armiyam», «Elat botir», «Jahon tinglagay» kabi asarlarida shuhrati armiyaning kuch-qudratini, tuzumining engilmas monolog birligini kuylaydi.

Urushdan so`nggi yillarda ham Fozil ota ancha barakali ijod qildi. «Kunlarim» avtobiografik asarini yaratdi.

Davlat va hukumat shoir xizmatlarini munosib taqdirladi. Fozil shoirning dostonchilikdagi ko`p yillik xizmatlari uchun 1928 yilda O`zbekiston hukumati unga umrbod pensiya tayin etdi.

Fozil shoir 1955 yil, may oyida o`z qishlog`ida vafot etdi.

### **TEKSHIRISH SAVOLLARI**

1. Ergash shoir madrasa ta`limini olgan savodxon baxshi sifatida.
2. Ergash shoir repertuarida an`anaviylik va novatorlik.
3. «Kunlarim» tarjiami hol asari.
4. Fozil shoir ijodida o`tmish va zamonvaiy mavzuining etakchiligi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

1. Ergash shoir davrning hozirjavob baxshisi
2. Fozil shoir boy va rang-barang mavzuda ijod qilgan sermahsul, ammo «xat bilmaydigan» ijodkordir.

### ***MAVZU: MUHAMMADQUL JOMROT O`G`LI PO`LKAN ShOIR, ISLOM SHOIR***

#### **R E J A:**

1. Po`lkan-o`zbek xalqining talantli baxshisi sifatida.
2. Baxshining mashaqqatli turmush tarzi xaqida ma`lumot
3. Baxshi repertuarida Go`ro`g`li turkumi dostonlarining o`rni.
4. «Xurshidoy» dostoni.
5. Islom shoir va uning shajarasining dostonchilikdagi o`rni
6. Baxshining ikkinchi jahon urushi yillarda yaratgan jangovor qo`shiqlari xaqida ma`lumot.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Jamoa Po`lkan shoir.T., 1976
2. Islom shoir va uning xalq poeziyasi tutgan o`rni T., 1978
3. O`zbek fol`klorining epik janrlari T., 1981

### ***Muhammadqul Jomrot o`g`li Po`lkan***

Muhammadqul Jomrot o`g`li Po`lkan o`zbek xalqining talantli shoirlaridan biri bo`lib, Po`lkan uning adabiy taxallusidir. Po`lkan 1874 yilda Xatirchi rayon Oxunboboev qishloq sovetiga qarashli Qatog`on qishlog`ida dexqon oilasida tug`ildi. Po`lkan yoshligidayoq ota-onadan etim qoldi. 10 yoshidayoq qora ishlarni bajarishga majbur bo`ladi. Boylarning molini boqib, cho`ponlik qiladi. Po`lkan shoirlik qilib, yurgan vaqtlarida do`mbira cheritib, qo`sish va termalarni aytishni o`rganadi. Po`lkanning iste`dodini ko`rgan Jassoq baxshi uni o`z tarbiyasiga oladi. Ikki yil ichida u doston va termalarni mustaqil aytadigan bo`ladi, so`ngra xalq o`rtasida maxsus sinovdan o`tib, Po`lkan shoir nomini oladi. U 25 yoshida mashhur usta va dostonchi bo`lib etishadi.

Po`lkan butun ijodi davomida 70 ga yaqin doston bilgan va kuylagan. Po`lkan kuylagan doston va termalar tematik janr va xususiyatlari jihatidan rang-barang bo`lgan.

Po`lkanning repertuarida «Go`ro`g`lining tug`ilishi va bolaligi», «Yunuspari», «Misqolpari» dostonlari bo`lib ularning ko`pchiligi «Go`ro`g`li» tsikliga kiruvchi dostonlar tashkil etgan.

Po`lkan kuylagan dostonlar ichida o`zining sotsial-ijtimoiy va badiiy qimmati jihatidan muhim ahamiyatga ega bo`lgani «Chambil qamali» dostonidir. Xalqimizning vaatnga muhabbat, arab bosqinchilarga qarshi nafrati, mahorat bilan ifodalangan. Doston 1927 yilda yozib olingan. Dostonda Go`ro`g`li, Yunuspari, Gulchehra ijobiy obrazlar yaratilgan bo`lib romantik xayoli tarixiy voqealar fonida tasvirlangan.

Po`lkanning bu dostoni o`zbek xalq og`zaki ijodida vatan mudofaasi temasida yaratilgan, xalqning chet el bosqinchilarga qarshi kurashini aks ettirgan eng muhim asarlardan biridir.

Po`lkan boshqa xalq shoirlari kabi traditsion syujetli dostonlarni kuylashda, ulrani g`oyaviy-badiiy jihatdan ishlashga olib ko`raylik. Avtor bu asarda Xurshidoy obrazi orqali shariat peshvolari eshonlarning asl basharasini ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi. Dostonda tasvirlanishicha, Xurshidoyning otasi safarga chiqish oldidan o`z qizini eshonga topshirib ketadi. Eshon esa qizni tarbiyalash o`rniga yomon ko`z bilan qaraydi, unga er bo`lgisi keladi.

Asar ozod hayotni tasdiqllovchi optimistik ruh bilan sug`orilgan.

Po`lkan milliy chegaralash, er-suv islohoti, kabi ijtimoiy-siyosiy voqealarni 1927 yilda yaratgan «Hasan batrak» dostonida tasvirlanadi. Bu dostonda real voqelik, 20-yillarda O`zbekistonda bo`lgan sinfiy kurash Hasan batrak, kurash va intilishlari tasvirida aks ettiriladi.

Dostonda tasvirlanishicha, Avazboyning Hasan qayqi (ya'ni o'jar) degan qaroli bo`ladi. U boyning eshidida yoshligidan xizmat qiladi. Hasanning otasi xam qarol va podachi bo`lib o`tadi. Otasining qarzi Hasanga ham meros bo`lib o`tadi. U tinmay ishlaydi. Ammo biri ikki bo`lmaydi. Shu orada Ulug` Oktyabr' sotsialistik revolyutsiyasi g`alaba qiladi, Hasan kabi kambag` allar qad ko`taradilar.

Hasan Avazboy kabi ekspluatatorlarni tugatishda aktiv ishtirok qiladi. Avazboyning qizi Oyqizga uylanadi. Baxtli hayotga erishadi.

Shoir Mamarayim firqa obrazida Kommunistik partiyaning rahbarlik rolini ko`rsatishga intiladi. Umuman «Hasan batrak» dostoni o`zbek-sovet fol'klorida tiklanish davrini aks ettirgan g`oyaviy-badiiy tomondan etuk asarlardan biri hisoblanadi.

Shoir sotsialistik Vatan mudofaasi termasida 1929 yilda «Hasan ko'l» nomli doston yaratadi.

Unda Kommunistik partiya rahbarligida mamlakatimiz chegaralarining dahlsizligi, mustahkamligi kuylanadi. Asarda Sovet armiyasining yapon samuraylariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlanadi.

Shoirning sovet davrida yaratgan doston va termalarida davrning muhim va aktual masalalari kuylanadi. U xotin qizlar ozodligi, er islohotlari masalalari kuylanadi.

Shoir 1941 yilda vafot etadi.

### ***Islom Shoir Nazar o`g`li***

Islom shoir oddiy mehnatkash oilasidan etishib chiqqan talantli san'atkor edi. U 1874 yilda Narpay rayon Oqtosh qishloq sovetidagi Galaqasob qishlog`ida kambag`al dexxon oilasida dunyoga keldi. Otasi bir parcha erda mehnat qilgan. Ammo ular qashshoqlikda yashashga majbur bo`lganlar. Otaquliboyning uyida xizmat qilib, qarzga botgan va 76 yoshida vafot etgan.

Islom yoshligidanoq akasi qishloq podasini boqardi. Keyincha Kattaqo`rg`onlik Saidmahsum degan boynikida xizmatkorlik qiladi. Shu erlik paxtachi Olimboy uyida ham etti yil cho`ponlik qiladi.

Islom shoir yoshligida maktab ko`rmaydi, shuning uchun u umr bo`yi savodsiz qoladi. Shunga qaramasdan u yoshligidanoq shoirlikka qiziqadi. Uning talanti o'sishida shoir bo`lib o'tgan bobosi Rajabning ta'siri muhimdir.

Islom shoir 32 yoshida Abdurahmon degan shoir bilan tanishadi. Uning Berdaqning «Yaxshiroq» nomli she'rini o`rganib oladi, o`zi ham shunga o`xshatib termalar yozadi. Islom shoir balog`at yoshiga qadar shaharma-shahar kezib yurib klassik shoirlar asarlaridan namunlar kuylaydi.

Islom shoir «Zulfizar bilan Avazxon», «Orzugul», Mashrabning axloqiy didaktik asari va shunga o`xshash juda ko`plab asarlarni zo`r mahorat bilan kuylaydi. Yuqorida sanalgan dostonlarning ko`pchiligi boshqa xalq shoir-baxshilari tomonidan kuylangan bo`lsada, Islom shoir uni o`ziga xos kuylaydi, badiiy jihatdan ishlab, lirik janrlar bilan boyitadi.

Islom shoir repertuaridagi «Zulfizar bilan Avazxon» dostonida o`zbek xalq eposlarning realistik va demokratik tendentsiyasi o`z ifodasini topgan.

«Orzugul» dostonida esa feodaolizm jamiyatning chirqinligini fosh etib, xalqning kelajakdagи baxt-saodatini kuylaydi dushmanga nafrat motivlarini ilgari suradi. Xalqning haqiqat va adolat uchun olib borgan kurashlari badiiy obrazlarda kuylanadi.

Dostonning bosh qahramoni Orzigul bog`bon qo`lida tarbiyalanadi. Cheksiz zulm va azob uqubatni o`z boshidan kechiradi. Orzugul o`z sevgani Suvonxon bilan dushmanga qarshi jangga chiqadi. Dostondan xotin qizlarning faqat oila hayotida emas balki mehnatda va mamlakat boshiga og`ir musibat tigan paytda erlar bilan baravar jangda fidokorlik ko`rsatganliklri ustalik bilan ifodalanadi.

Islom shoir termalar yaratish va kuylashda xam o`zining ovozini talantini ko`rsata olgan shoirdir.

Ijodining dastlabki davrlarida yaratgan termalarida shoir o`zining ahvolini, erksiz hayotini tasvirlash orqali umuman o`zbek mehnatkashlarining baxtsiz turmushini badiiy ifodalaydi. Islom shoir o`zining «Do`mbiram» nomli she`rida o`zining ruhiy kechinmalar va tarjimai holi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Sening egang tug`ilgan Qassobli kentda ,

Buyog`ing zoldori, qopqog`ing tutdan.

Sening nolishingga qoyil barchalar

Ulfating har yurtdan bo`lgan do`mbiram.

Shoirning «Mingboshi» termasida esa feodal amaldorlarning xalq xoini zulukdek so`rganliklari, andishasizlik xususiyatlari ochib tashalanadi.

Qo`tir eshakka o`xshar uning sinbati

Ochiqqan bo`riday yurtning jallodi,

Elu yurtni sog`ib ichmoq odati

Shayton sifat xiylakordir illati,

Jabr ayladi xaromxo`r shu mingboshi.

Ikkinchi jahon urushidan avval bir qancha termalar yaratdi. Bu termalar o`tmish hayotning, zamon voqeligining turli sohalariga bag`ishlangandir.

Jahon urushi boshlangan kunlardanoq Islom shoir o`z she`rlarida jangovarlik, do`stlik motivlari ifodalanadi. Shoirning «Jangnoma» va «Qahramonnomma» nomli she`rlari to`plami vatanparvar xalq shoiri sifatida uni xalqqa tanitdi.

1942 yilda yaratgan «Dushmani Vatandan suring» she`rida sovet jangchilarini mardlikka, jasoratga undaydi.

*Er yuzida qo`ymangiz, yovlarni bo`stonidan suring,*

*Va'dasi yo`q o`g`rilarni balki olamdan so`ring.*

*G`ayrat aylab, ey botirlar misli to`ponday suring*

*Axli mehnat birlashib sheru qoplonday suring.*

Islom shoir «Qahramon leytenant Bundyuk» she`rida mard sovet o`quvchisi obrazini chizadi. Bundyuk obrazi misolida sovet jangchisiga xos otashin vatanparvarlik xususiyatlari ko`rsatiladi.

To`rt quzg`unni ko`rib qoldi yiroqdan

Shiddat bilan o`q uzdi po`lat piroqdan,

Qoyil qolib el-yurt boqdi har yoqdan

Yov qidirib Bundyuk uchar osmondan.

Urushdan keyingi yillarda Islom shoirning ijodi yangi pog`onaga ko`tariladi. Yangi zamonaviy dostonlar yaratdi, ko`plab qo`shiqlar to`qidi, fol`klor asarlarini kuylashda davom etdi.

Ijtimoiy siyosiy va jamoat ishlarida aktiv ishtirok etdi. Shoirning urushdan keyin aytgan «Ikki rayon musobaqasi», «Eganing shakar, bolam» kabi she`rlari mehnat termasiga bag`ishlangan bo`lib, ularda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati kuylanadi, ijodiy mehnatda mamlakatni qurish ishida ilg`or bo`lishga chaqiradi.

Islom shoir tinchlik termasida xam «Biz tinchlik tarafdomiz», «Tinchlik jarchisi» kabi she`rlari shular jumlasidandir.

Islom shoirning «Narpay qahramonlari» nomli dostoni urushdan keyingi yaratilgan yirik asardir. Bu asarda narpaylik Ochil Abdievning mehnat faoliyati bayon qilingan.

Partiya va hukumatmiz xalq shoirlari qator Islom shoir ijodiga ham alohida e`itibor va hurmat bilan qarab keldi. Unga imkoniyatlar yaratib berdi. O`zbekiston Sovet Yozuvchilari soyuzi pravleniesi Islom shoir bilan ishlash uchun shoir Quddus Muhammadiyni sekretar' qilib tayinladi.

O`zbekiston hukumati 1940 yili unga «O`zbekiston xalq shoiri» faxriy unvonini berdi va umrbod shaxsiy pensiya tayinladi. Islom shoir «Mehnatda o`rnak ko`rsatgani uchun» 1941-1945 yillar Ulug` Vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun» medallari bilan taqdirladi.

Islom shoir ko`p yillari Narpay rayon sovetining deputati bo`lib keldi.

### ***TEKSHIRISH SAVOLLARI***

1. Po`lkan xalq mashaqqati xayotining mohir kuychisi
2. Po`lkan baxshi ijrosida Go`ro`g`li turkum dostonchilarining etakchiligi
3. Po`lkan yangi dostonlar yaratuvchi ijrochi
4. Islom shoir repertuarida an'anaviylik va novatorlik
5. Shoir ijodida urush va tinchlik uchun kurash mavzularining etakchiligi

### ***TAYANCH TUSHUNCHALARI***

1. Po`lkan «Go`ro`g`li» turkum dostonchilarining moxir ijrosi
2. Islom shoir ijodida tinchlik va ijodkorlik mavzularining etakchiligi

### ***MAVZU: O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI***

#### ***R E J A:***

1. VII-VIII ijtimoiy madaniy xayot.
2. «Chambil qamali» dostoni, «Armoning qolmasin» asarlari arab bosqinini ifodalvchi asar sifatida

3. M.Qoshg`ariy va uning «Devon»idagi xalq og`zaki ijodi asarlari
4. XII-XIII asr fol`klorida rus bosqini fosh etuvchi mo`g`il bosqinini ifodalaganligi.
5. Temuriylar davri fol`klori
6. XIX-XX asr fol`klorida rus bosqini fosh etuvchi asarlarning yuzaga kelishi
7. Fol`klorda milliy-ozodlik mavzulari

### ***ADABIYOTLAR:***

1. Jamoa: O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi T., 1980
2. Jamoa: O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi T., 1980

### **MAVZU: O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODINING TARIXIY BOSQICHLARI FEODALIZM DAVRI O`ZBEK XALQ O`ZAKI IJODI (VII-asrdanXIXasrning II yarmigacha )**

III-IV asrlarda O`rta Osiyoda quldarlik munosabatlari emirila boshlab, feodal munosabatlarning yuzaga kelishiga zamon hozirlandi. Bu davrlarada kon sanoati, temir rudasi qazish, temir va mis eritish kumush, oltin qazib chiqarish, neft' chiqarish, nodir toshlar qazib olish rivojlandi. Oltin va kumushdan zargarlik buyumlari yasala boshladi. Shisha ishlab chiqarish sanoati rivojlandi. Tasviriy sa'nat rivojlandi. Umuman, O`rta Osiyo xalqlari tarixining katta bir davri I-IV asrlar hali to`la o`rganilib chiqilgani yo`q. Sovet arxeologiyasi keyingi yillarda katta-katta kashfiyotlar qilyaptiki, bular I-IV asrlar badiiy yodgorliklari xaqidagi tasavurini yanada boyitishga xizmat qiladi.

VII asr oxiri va VII asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy jihatdan tarqoq bo`lgan O`rta Osiy arab xalifalari qo`shinlari istilo qiladi. Arab istilochilar O`rta Osiyoda o`z hukmronliklarini mustahkamlash maqsadida mahalliy xalq o`rtasida islom dinini zo`rlik bilan joriy qiladilar.

Islom dini kirib kelishidan avvalgi davrda O`rta Osiyoda xalqlari vujudga keltirgan ko`pincha madaniy yodgorliklarga, xalq og`zaki ijodiga arab istilochilariga nafrat bilan qaraydilar. Ularni yo`q qilishga intiladilar. Chunonchi 712 yilda arab istilochilar Xorazmda mavjud kutubxonalarini yondirish bilan birga ko`pgina olimlarni ham o`ldirdilar. Mahalliy xalqlar yozuvini bekor qilib uning o`rniga arab yozuvini kiritadilar. Davlat ishlarida arab tilini qo`lladilar Natijada arab istilosidan keyingi yillarda O`rta Osiyoda kelgan badiiy ijod, arab tilida davom etdi. Shoir va olimlar o`z asarlarini shu tilda davom ettirdilar. Shunday qilib, arablar istilosidagi O`rta Osiyo xalqlarining ming yillar bo`yi yaratgan madaniy boyliklari nobud bo`lib ketdi.

O`rta Osiyo xalqlarining madaniyati va adabiyoti VII asrning II yarmidan boshlab yana rivojlanishi boshladi. Bu rivojlanish mahalliy xalqlarning zolimlarga qarshi olib borgan qattiq kurashlari sharoitida bordi.

O`rta Osiyo xalqlari barcha imkoniyatlarini ishga solib arab bosqinchilariga qarshi mardona kurashga otlantirdilar, birin-ketin qo`zg`ololar ko`tarildi. Bunday qo`zg`olonlarning eng kattasi tarixda Muqanna nomi bilan mashhur, marvlik

hunarmand Hoshim ibn Hakim boshchiligidagi qo`zg`olondir. VII asrning 70 yillarida bo`lib o`tgan bu qo`zg`olon butun Movarounnahrda yoyildi. Arab istilochilari bu qo`zg`oloni shavqatsizlik bilan bostirdilar. Lekin bundan keyin xam xalq qo`zg`ololarni to`xtatmadi. Divastich rahbarligidagi Samarqand va Pandjikent qo`zg`oloni, Sharqi-shimoliy Eronda Sunbod qo`zg`oloni bo`ldi.

Bu davrlarda xlaq og`zaki ijodi xam taraqqiy etdi. Chunki, ijodkor xalq qanday sharoitda yashamasin o`zining og`ir turmushini, turli ekspluatatorlar tomonidan jabrzulm ko`rganligi tasvirlanadi, zulmkorlarga o`z nafratini ifodalaydi. O`zining qayg`u hasrat bilan to`lgan ko`ngilsiz turmushini tasvirlovchi asarlar yaratadi. Ozodlik uchun olib borilgan kurashlarini va bu kurashda etishgan qahramonlarni kuylaydi. Mehnatkash xalq qachon bo`lsa ham o`z g`alabasini qa`tiy ishonadi. Shuning uchun ham bu davr voqealarini ya`ni arab bosqinchilariga qarshi kurashni badiiy aks ettiruvchi «Chamdir qamali», «Rayhon arab» va boshqa dostonlari hamda termalarida ozodlik, baxt-quvnoq turmushga intilish kelajakka bo`lgan ishonch baralla yangraydi. Xalqning arab bosqinchilariga qarshi kurashini aks ettiruvchi «Chambil doston» bu jihatdan ahamiyatlidir.

«Chambil doston» dostoni Po`lkan og`zidan yozib olingan bo`lib, unda o`zbek va turkman xalqining arab bosqinchilariga qarshi olib borilgan qahramonona kurashi badiiy ifodalangan.

...Go`ro`g`lining Chambilda yo`qligidan xabardor bo`lgan Rayhon arab Chambil elini bosib olmoqchi bo`adi. Ko`p sonli qo`shini bilan Chambil eli ustiga yurish boshlaydi. Ammo Go`ro`g`lining arablar qo`lida asira bo`lgan enasi Xoljuvon chopar yuborib, Vayangan shahrida Temirxon podsho huzurida mehmonda bo`lgan Go`ro`g`lini xabardor qiladi.

Go`ro`g`li o`z yigitlarini atrofiga to`plab, Temirxon podsho esa Saxman ismli pahlavon va qizi Gulchehrani ularga qo`shib Rayhon arabga qarshi kurashga otlanadi. Arablarni Chambil elidan quvib chiqaradilar.

Dostonning muhim fazilati shundaki unda islom dini ta`limotiga qaramaqarshi o`laroq xotin-qizlar roliga alohida e`tibor berilgan. Xotin qizlarning kundalik uy-ro`zg`or ishlarida emas, balki vaqtি kelsa jang maydonida ham jasorat ko`rsata olishlari mumkin ekanligi ifodalangan. Dostonda Xoljuvon, Gulchehra, Yunuspari obrazlari mehr bilan yaratilgan.

Xoljuvon o`zining ziyrakligi bilan ko`zga tashlansa, Yunuspari Chambilning xotin qizlariga mudofaaga boshchilik qiladi. Erkakcha kiyinib jang qiladi.U:

Qovoqlarini uyinglar,  
Qiz-xotinni yig`inglar,  
Po`pakni yig`ib tashlab,  
Sochni boshga tuginglar!  
Xotinlikni qo`yinglar  
Sarboz anjom qo`yinglar.

deb xotin kishilarni jangga otlanadiradi.

Dostonda Temirxon podsho qizi Gulchehra obraziga ham alohida o`rin berilgan. U xam Yunuspari kabi arablarga qarshi kurashda qahramonlik ko`rsatadi.

Asar oxirida Go`ro`g`li boshliq Chambil eli g`olib chiqadi, arablarni quvib borib, u erda ham tinchlik o`rnatadi. Adolat tantana qiladi.

O`rta osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi Ergash Jumanbulbul og`zidan yozib olingan «Armoning qolmasin» termasida xam qisman ifodalangan.

M.Qoshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» XI asrning qomuschi olimi M.Qoshg`ariyning asardir. M.Qoshg`ariy sayyoh va olim sifatida o`z zamonasidagi 20 dan ortiq qabila va urug`larni aylanib chiqadi. Ularning tili, og`zaki ijodini o`rganadi va shu asosda ««Devonu lug`otit turk»» asarini yaratadi.

Bu asarlar faqat tilshunoslik uchun emas balki xalq og`zaki ijodini o`rganishda ham muhim manba rolini o`ynaydi.

«Devonu lug`otit turk» asari 1909 yilda Istanbulda topildi. Bu asar yozilgandan 200 yil o`tgach ko`chirilgan yagona nusxa xozirgi paytda Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Uch tomdan iborat bo`lgan «Devonu lug`otit turk»ning to`la variantini filologiya fanlari doktori S.Mutalibov o`zbek tiliga tarjima qildi va O`zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan nashr ettirildi.

M.Qoshg`ariy Chindan boshlab, Movarounnahr, Xorazm, Farg`ona, Buxoroga qadar cho`zilgan territoriyada qabila va urug`larining tili va og`zaki ijodini o`raganadi, materillar to`pladi. Oddiy xalq ommasining vakillari, olimlari va shoirlar bilan suhbatlashadi.

«Devonu lug`otit turk» asari 2 qismdan iborat bo`lib, 1 muqaddima qismida avtor lug`at yaratish sabablarini ko`p yillar davomida lug`at ustida ishlaganligini ta`kidlaydi.

Devonda 300 ga yaqin she`riy parcha, maqol va hikmatli so`zlar berilgan. «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida, hikmatli so`zlar, syujetlar maqollar qo`shiqlar bilan bezadim» deb yozadi muallif.

Asardagi qahramonlik marosim, mehnat qo`shiqlari va boshqa lirik parchalar o`sha davrda yashagan qabila va xalqlarning hayoti, kurashi va psixologiyasi badiiy formada ifodalangan. Qo`shiqlarda botirlik, vafodorlik motivlari tarannum qilingan.

«Devonu lug`otit turk» asaridagi mehnat qo`shiqlari ovchilik chorvachilik aks ettirgan.

Ov haqidagi parchalarda esa qadimgi mehnat kishisining ovchilik san`ati tasvirlangan:

Chag`ri berib ishlatu,  
Toyg`on izib ishlatu,  
Tulki to`ng`iz toshlatu,  
Ardam bilan o`kladim.

Devondagi ko`pgina she`rlar didaktik xarakterda. Ularda bilim olimlik fazilati ulug`lanadi. Otalar nomidan farzandlariga murojaat qilinadi.

Masalan, quyidagi parchada otaning o`g`liga nasihatni ifodalangan:

Baqmas budun savuq so`z,  
Yuqdi yuzi sarpakka.  
Qazg`an ulich tuzunluk.  
Qalsun chaving yarinqa.

«Devonu lug`otit turk»da mehnat, visol ishtivoqi va hijron alamini kuylaydi, chin insoniy fazilatlarni ulug`laydi. Kishilarni or-nomus kabi ezgu xislatlarga o`rgatadi.

Devondagi she'riy parchalar orasida Yoz bilan Qish munozarasi, urushlar tasviri, alplar vafotiga bag`ishlangan marsiyalar bor.

Umuman olganda «Devonu lug`otit turk» kitobi O`zbekiston territoriyasida yashab kelayotgan turkiy tilda so`zlashuvi barcha xalqlar badiiy ijodiga oid muhim ma'lumotlarni o`zida jamlagan qimmatli ilmiy manbadir.

X-XII asarlarda O`rta Osiyo xalqlarining badiiy so`z san'ati taraqqiyotida muhim bir davr bo`ldi. Bu davrda xalq og`zaki ijodining boy va xilma-xil yangi asarlari paydo bo`ldi. Reaktsion adabiyotga qarshi kurashda o`sib takomillashgan progressiv adabiyotga xalq og`zaki ijodining tughanmas manbalarini foydalanishi va ayni zamonda xalq og`zaki taraqqiyotiga ham samarali ta'sir etdi.

XII-XIII asrlarida O`rta Osiyoda territoriyasida feodal tarqoqligi ancha kuchaygan edi. Bundan foydalangan Chingizzon 1219 yilda Ettisuv viloyatini bosib oldi. Mahalliy xalq Chingizning dahshatli hujumini qaytarishga intildi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda. Chingiz qo'shini Buxoroga bostirib kirganida to'rt yuz vatanparvar 12 kun davomida Buxoro arkida qattiq jang qilgan ekan. Temur malik boshchiligida Xo`jand aholisi Chingiz qo'shinlariga qarshilik qilgan. Shunga qarmasdan feodal tarqoqligi, davlat boshliqlarining noahilligi natijasida Chingizzon O`rta Osiyonni osonlik bilan engidi. Ammo mehnatkash xalq bosqinchilariga qarshi mardona kurash olib bordi. Masalan, 1238 yilda Buxoro Mahmud Tarobiy rahbarligida xalq qo`zg`oloni bo`ldi. O`rta Osiyo xalqining mo`g'il bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari badiiy adabiyotda jumladan, xalq og`zaki ijodida ham yorqin aks ettirilgandir. Jumladan, «Bo`ji keldi, Bo`ji keldi, Chingiz bilan Jo`ji keldi» kabi maqollar, ertaklar afsonalar yaratildi. Ammo bunday afsona ertak va maqollar davrlar o`tishi bilan yo`qolib ketgan yoki ularning nomlarigina u yoki bu tarixiy manbalarda saqlanib qolgandir.

Xalq og`zaki ijodining bu davrlardagi taraqqiyotini xalq og`zaki ijodining bevosita ta'siri natijasida maydonga kelgan «Qutadg`u bilik», «Qissai Rabg`o'ziy» kabi o`nlab yozma adabiyot asarlari misolida tasavvur etish mumkin. Bugina emas, keyingi davrlarda sovet arxeologlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tekshirishlar O`rta Osiyo xalqlarining mo`g'il bosqinchilarini zulmiga qarshi olib borilgan ozodlik kurashlarini ifodalovchi ayrim asarlarni topishga imkon beradi. Ana shunday afsonalardan biri mashhur arxeolog S.P.Tolstov tomonidan Qorqalpog`iston territoriyasidagi Guldursun xarobasin o`rganish paytda yozib olgan «Guldursun» afsonasidir.

Bu afsonada O`rta Osiyo xalqining chet el bosqinchilari vatan xoinlariga qarish nafrat aks etgandir. «Guldursun» afsonasining qisqcha syujeti quyidagicha. Bir vaqtlar Guldursun degan shahar bo`ladi. Bir shahar juda chiroqli obod bo`lib, xalq to`q va faravon yashagan. Guliston podshosi o`z xalqigaadolat bilan hukmronlik qilgan. Podshoning Guldursun ismli go`zallikda tengi yo`q qizi bo`lgan ekan. Kunlardan bir kun dushman Guliston shahrini qamal qilibdi. Podsho shahar aholsini mudofaaga safarbar qilibdi. Xalq o`z shahrini mardona himoya qilibdi. Shaharda oziq-ovqat tugab, ochlik boshlansa xam Guliston xalqi qurolni tashlamabdi. Shahar oqsoqollari biror chora o`ylab topish maqsadida o`zaro maslahatlashibdi. Shahar aholisi qolgan-qutgan donlarni bir necha sigirga edirib, qal'adan chiqarib yuborishibdi. Ochlik dushmanni ham mavx eta boshlabdi. Ochlikdan toliqqan

dushman askarlari ana shu sigirdan so`yishibdi. Sigirlarning ichidan chiqqan donlarni ko`rishib hayron qolishibdi. Dushmanlar «shahar xalqining hali oziq-ovqati ko`p ekan o`zimiz ochlikdan qirilib ketmasdan tezroq jo`nab qolaylik», deb ketish taraddudiga tushishibdi.

Shunda podshoning engiltak qizi xiyonat qilibdi. U jang paytida dushman lashkarboshisini sevib qolgan ekan. U dushman lashkarboshisiga xat yozib, shahar xalqining sirini oshkor qilibdi. «Sigir voqeasi xiyladir shaharda oziq-ovqat tugagan. Bir kun sabr qilsang xalq taslim bo`ladi»-debdı

Dushman qo`shinlari shaharni qattiqroq qamal qilibdi. Ochlikdan sillasi qurigan, charchagan shahar xalqi taslim bo`libdi.

Jang tamom bo`lgach dushman lashkarboshisi Gulpursunni huzuriga chiqarib shunday debdi: «Sening nima uchun otingga, elu yurtingga xiyonat qilib, hamshaharlarining sirini oshkor qilganingni bizga ya`ni dushmanlaringga yordam bergenningni bilmayman. Ammo meni sevib qolib shu ishni qilgan bo`lsang seni shunday atay: sen otingga xalqingga xiyonat qilding, menga vafo qilmarmiding». Bunday xoinlikning jazosi faqat o`lim. Shundan so`ng shaxzoda Guldursunni otning dumiga bog`lab, shaharni aylantiribdi. Uning qoni to`kilgan er dahshatga aylanibdi. Dushman shaharni xarobaga aylanishiga Guldursun sabab bo`lgani uchun kishilar xarobani Guldursun deb atay boshlabdilar.

Mo`g`il bosqinchilariga qarshi xalq qaxramonlik kurashi boshqa qardosh xalqlarining adabiyotiga ham jumladan rus xalqining Shelkan xaqidagi g`azabli qo`schiqlarida, Serapion nasihatnomalari «Evpatiy Kolovrot xaqida qissa» va boshqa asarlarida ham yorqin ifodalangan. Shuningdek, o`g`iz va qarluq-uyg`ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan bo`lgan «O`g`uznama» ham qisman shu davrga taalluqli.

XIX-XV asrlarda xalq og`zaki ijodining doston, ertak, va boshqa janrlari taraqqiy etdi. Yangi maqollar xikmatli so`zlar paydo bo`ldi. O`zining yaxshi turmush, to`g`risidagi asriy orzusini tarannum etdi. Hatto ijodkor xalq bu javrda yaratgan afsona va hikoyalarida Ulug`bek, Navoiy, Ibn Sino kabi buyuk kishilarning obrazlarini yaratdi.

Mehnatkash xalqning ijtimoiyadolatsizlikka qarshi norziligi zolim va johil hukmdorlarga qarshi nafrati XV asrda va undan keyin yaratilgan Temur xaqidagi latifalarida ayniqsa yaqqol ifodalananadi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, fol`klorda qadimdan mashhur kishilar to`g`risida rivoyat va hikoyatlar yaratish odat bo`lib kelgan. Turli zamonlarda yashagan donishmandlar, olimlar, shoirlar, davlat arboblari va sarkardalar haqida xilma-xil rivoyatlar, hikoyatlar vujudga kelgan. Real voqelik, tarixiy faktlar asosida yaratilgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bilan badiiy to`qima, fantaziya aralash holda beriladi. Jumladan O`rta Osiyoning buyuk olimlari Beruniy, Farobi, Ulug`bek, genial sa`natkorlari Navoiy, Jomiylar haqida ko`plab latifa va afsonalar mavjud. Ularda ana shu mashhur kishilar ta`rif tavsif etiladi. Odamiyligi ulug`lanadi. Lekin ana shu asarlar orasida ulug` kishilar haqida tarixiy xaqiqatni buzib to`qilganlari ham borki, bu narsa feodal o`rta asriga xos mafkuraviy kurashning bir ko`rinishidir.

## **TEKSHIRISH SAVOLLARI**

1. Arab istilosiga bo`lgan turkiy xalqlar madaniyati san'at va adabiyoti xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz.
2. Arab istilosi davri hayotini aks ettirgan terma dostonlarda istilochilikka qarshi kurash voqealari qay tarzda ifodalangan?
3. «Devonu lug`otit turk» xalq tarixi etnografiyasi tili va adabiy boyliklarini ifodalovchi qomusiy asar sifatida.
4. Mo`g`il istilochiligi davri xalq ijodiy namunalarida ifodalangan etakchi mavzulari?
5. Rus bosqini davri fol`klori asarlarida milliy ozodlik harakatlari qay tarzda ifodalangan?

## **TAYANCH TUSHCHALARI**

1. «Devonu lug`otit turk» xalq og`azki ijodining bosh manbai sifatida
2. Tarixiy shaxslarga oid fol`klor asarlarida ob`ektivlik va sub`ektivlik munosabat bildirish.
3. Rus bosqinni davri asarlaridan milliy istiqlol orzulari ifodasining etakchiligi.

## **MAVZU: XALQ ERTAKLARI DUNYO XALQLARINING OMMAMAVIY TURI SIFATIDA**

### **R E J A:**

1. Ertak janri va uning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Ertaklar tasnifi.
3. Sehrli – fantastik ertaklar.
4. Maishiy ertaklar.
5. Satirik ertaklar.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Afzalov M. O`zbek xalq ertaklari haqida. T., 1964.
2. Jalolov G. O`zbek xalq ertaklari poetikasi. T., 1976.
3. Imomov K. O`zbek xalq prozasi. T., 1984.
4. Prop russkaya skazka. L., 1984.

## **XALQ ERTAKLARI**

Ertaklar fol`kloring keng tarqalgan ommaviy janrlaridan biridir. Ertaklar xalq hayoti, ijtimoiy turmushi, ma`naviy dunyosi, dunyoqarashi bilan uzviy bog`langandir.

Ertak janri dunyo xalqlari fol`klorida so`z san'atining eng ommaviy, eng demokratik turi hisoblanadi. Ertaklarning paydo bo`lishi uzoq o`tmishga, sinsiz jamiyatga borib taqaladi. Ertaklarda xalqning tilak va orzulari aks etadi.

Uzoq proletar yozuvchisi A.M.Gor'kiy o'zining «Ming bir kecha»ga yozgan so`zboshisida ertak janri va uning g`oyaviy-badiiy ahamiyati to`g`risida qimmatli fikrlar bildirgan edi.

«Ming bir kecha» xalq og`zaki ijodining eng yaxshi va monumental namunasidir. Bu ertaklar mehnatkash xalqning «shirin xayollari zavqiga», erkin o`yinidan eavqlanishiga ifoda qiladi, sharq xalqlari fantaziyasining jo`sh urgan kuchini ifoda qiladi. Bu suxandonshunoslik juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, uning rang-barang ipaklari butun er yuziga yoyilib, uni hayron qolarlik darajada go`zal so`z san'ati bilan qoplagan...»<sup>7</sup>.

A.M.Gor'kiyning «Ming bir kecha» ertaklariga bergan bahosi o`zbek xalq rtaklariga ham taalluqlidir. Chunki ertak janriga xos xususiyat barcha xalqlar ertaklari uchun mushtarakdir. Bu narsani ertaklarning syujeti, kompozitsiyasi, g`oyaviy mazmunida ko`rish mumkin.

Ertaklar insonning o`zini o`rab olgan muhitdan, tabiiy hodisalar ta'sirlanishi natijasida yuzaga keladi. Rus sovet ertakchisi P.P.Bajev «Ertaklar orqali hayotni ko`rasan» deganida, qozoq sovet yozuvchisi Muxtor Avezov «Ertaklarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o`zining badiiy ifodasini topgan», - deb yozganida ertak fantaziyasining zaminida real haqiqat yotishini nazarda tutgan edilar.

Ertaklarning etnografiya uchun ham muhim rol' o`ynashini prof.M.K.Azadovskiy alohida qayd etib quyidagilarni yozgan edi: «Etnografiyanı o`rganishda ertaklar katta va muhim rol' o`ynaydi, shu bilan birga badiiy yodgorliklarni aytuvchilar hisoblanadilar»<sup>8</sup>

Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan biri uning xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilanjuda yaqin bog`langanligi va insonlarga axloqiy hamda ma`naviy tarbiya berilishidir. Ertaklarda inson o`ziga dushman bo`lgan kuchlarga qarshi doim g`olib chiqadi.

Ertaklar tuzilishiga ko`ra sodda va anglashilishi oson bo`lgani uchun kitobxonning barcha tabaqasiga tez etib boradi.

Bir qancha ertaklar bir xalqdan ikkinchi xalqqa o`tadi va keng tarqaladi. A.M.Gor'kiy bu haqda quyidagilarni yozgan edi: »Qadimgi ertaklarning bir xalqdan boshqa xalqqa o`tib toboro har bir irk, har bir millat va har bir sinfning xususiyatlari bilan to`ldirilib borishi protsessi fikr yuritish, madaniyat va xalq ijrochiligining rivojlanishida juda katta rol' o`ynaganligi hech shubhasiz bo`lsa kerak»<sup>9</sup>. Haqiqatan hamhar bir xalqdagi o`sha xalqning hayoti, urf-odatlari, dunyoqarashi, orzu-umidlari, tarixi, psixologiyasi ifodalananadi.

Ertak termini xalq orasida uzoq asrlardan beri yashab keladi. Ertak terminating ma`nosи turlicha. Ertak qadimgi avvalgi ma`nolarini ifodalaydi.

Samarqand, Surxandaryo oblastlarining ayrim rayoni va qishloqlarida «ertak» o`rniga «matal» so`zi qo`llanadi. «Matal» terminini Farg`ona shevalarining ayrimlarida ham uchratish mumkin. Buxoroning ba`zi rayonlarida «ushuk» termini qo`llanilsa, Toshkentda «cho`pchak» ishlatiladi.

<sup>7</sup> «Минг бир кеча», 1-том, Тошкент, 1959 йил, 4-бет.

<sup>8</sup> М.К.Азадовский. Статьи о литературе и фольклоре. М.,Л., 1960.

<sup>9</sup> А.М.Горький. Эртаклар маъзода. «озбек фольклоридан ՚ув материаллари». Тошкент, 1950 йил, 5-бет.

Ertak termini qozoqlarda «ertak», «tolg'on», «utruk», qirg'izlar «jojomoq», turkmanlarda «erteki», «hekoya», «buderek gurun», «yalan», qoraqalpoqlarda «ertak», «jolg'on», «qalpeki», «o'yab shig'oltilg'on» deb ataladi.

Taniqli fol'klorshunos olim M.I.Afzalov xalq ertaklarini shartli ravishda ikki qismiga ajratadi.

1. Fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik moment kuchli bo`lib, ularga hayvonlar haqidagi va sehrli-fantastik ertaklar kiradi.

2. Realistik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik momentlar kuchsiz bo`lib, ularga hayotiy va satirik ertaklar kiradi.

A. Hayvonlar haqidagi ertaklar. Bunday ertaklar eng qadimgi zamonlarida paydo bo`lgan, ibridoiy odamning tabiat voqeа-hodisalariga totemistik va animistik qarashlari bilan izohlanadi. Ibtidoiy odamlar hayvonlar ham odamlar kabi gapiradilar, fikrlaydilar deb tushunganlar. Insonning jonli tabiatga bolalarcha sodda munosabati uning hayvonlar haqidagi ertaklardga ifodalangan.

Bu haqda E.Teylor o`zining «Ibtidoiy madaniyat» asarida ko`plab misollar keltiradi. Uning fikricha, ibridoiy odam o`z atrofidagi hayvon va qushlarni o`zlariga o`xshatadi, ya`ni ular odam kabi so`zlashadi, fikrlaydi, urishadi, do`splashadi, bir-birini sevadi, psixologik kechinmalarni kechiradi. Mana shu yillar bilan qadimgi inson tushunchasida turli hayvonlar, qushlar haqida miflar, ertaklar, masallar yuzaga kelgan<sup>10</sup>.

Ota-bobolarimiz hayvonlarning ba`zi birlarini ilohiyashtirganlar. Bunday totemistik qarash o`zbeklar orasida ham mavjud bo`lgan. Masalan, o`zbeklarning orasida bo`ri bo`lgan totem mavjud. Chunki o`zbeklarning bir necha qabilalari o`zları bo`ridan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bu haqda professor H.T.Zarifov shunday yozadi: «O`zbek urug`larining bir qanchasida bo`ri obrazi ijobiy, hatto muqaddas sanalganki, bu tushncha ularning bir zamonlar bo`riga e'tiqod qilganliklari, uni totem sifatida muqaddas tutganliklari bilan bog`liqdir»<sup>11</sup>.

Inson hayvonlarning o`ziga foyda keltirganlarini ijobiy, zarar keltirganlarini salbiy obrazlarga ajratadi. Shuning natijasi bo`lsa kerak, o`zbek xalq ertaklarida it, ot, mushuk, sichqon, qo`y – echki, kiyik, ijobiy obrazlar bo`lib tulki, bo`ri, sher, yo`lbars, ilon, eshak va boshqalar salbiy obrazlarni tashkil etadi.

Umuman, dunyo xalqlari adabiyotida hayvonlar, qushlar, narsa-predmetlar to`g`risida juda ko`p ertaklar vujudga kelgan. Bularda u yoki bu xalqning o`sha hayvonga bo`lgan munosabati, milliy koloriti o`z ifodasini topgandir. Chunki har bir xalq tabiatida hayvon va jonivorlarga, narsa-predmetlarga o`zicha munosabatda bo`ladi. Chunonchi, olg`irlik kabi xislatlarni ko`rib keladi.

Masalan, «Bo`ri bilan tulki» ertakini olib ko`raylik. Bu ertakda Bo`rning ham, Tulkining ham salbiy xususiyatlari ochiladi.

Bo`ri Tulkiga: - Qornim och. Qornimni to`yg`azib, bir xursand qil, jon Tulki, - debdi. Ikkinci kuni Bo`ri Tulkiga: - Zap ish qildigda. Tulki, -debdi b Uri, -juda xursand bo`ldim. Endi bir xafa qilchi, qandoq bo`larkan! Tulki uzumzor bog`dan ikki dona uzumni burnuga siqib, bo`riga ko`z-ko`z qiladi:

<sup>10</sup> Э.Тейлор. «Ибтидоий маданият». Москва, 1939, 285-бет.

<sup>11</sup> Ҳаронг: «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари», 1958 йил, № 1, 29-30-бетлар.

-Bo`ri, Bo`ri! Men to`ydim. To`yanidan uzum burnimdan chiqib ketayapti,- debdi. Go`l, ahmoq Bo`ri Tulkining so`ziga ishonib, to`yib uzum eyodi, bog`bon kelib qolgach, ochib ketolmay, kaltakka duchor bo`ladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar boshqa turdag'i ertaklarga qaraganda kompozitsiya jihatidan oddiy, ular ko`pincha qisqa va ma'lum bir didaktik xulosani ko`zda tutadi.

B. Sehrli fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda ham o`tmishda yashagan insonning hayoti, tabiatga bo`lgan munosabati, dunyoqarashi ifodalangan.

Sehrli fantastik ertaklarda syujeti ham, obrazlar ham aql bovar qilmaydigan darajada aks ettiriladi. Sehrli fantastik ertaklarning asosiy qahramoni inson bo`lib, narsa-predmetlar, hayvon va qushlar insonning sehrli yordamchilari bo`lib gavdalanadi.

Masalan, «Semurg» ertagida o`zining fantastik imkoniyati bilan insonga yordam beradi. Insonni turli odatlardan qutqaradi. Olis masofalarni bosib o`tishda, ko`p sonli yovuz kuchlarni engishda unga yordam beradi.

«Uchar gilam» ertagida gilam – transport vositasi. «Ur to`qmoq» ertagida to`qmoq kuch, quroq, «Ochil dasturxon»da dasturxon noz-ne'matlarning makoni sifatida tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklar nihoyatda ajoyib, qiziqarli bo`lib, syujeti birmuncha murakkabdir. Sehrli-fantastik ertaklarda ham totemizm qoldiqlari ko`zga tashlandi.

Masalan, bunday ertaklarda insonning hayvonga aylanib qolishi yoki yana asliga qaytishi kabi motivlar totemistik tushunchalarning ta'siridir. Sehrli – fantastik ertaklarda qahramonning hayvonlar bilan munosabatda bo`lishi ijobiy natijalarga olib keladi.

«Kenja botir» ertagida hikoya qilinishicha, podshoning bog`idagi oltin qanotli uchar ot kelib, eb ketar ekan. Bu uchar otni faqat podshoning kichik o`g`li-Kenja botir ushlab oladi va shu ot bilan do`splashib, qiyinchiliklarni engadi. Kenja qanotli otni o`limdan saqlab qolgani uchun o`z ustiga mindirgani holda osmonda uchib, ko`p qiyin, mashaqqat shartlarni bajaradi, insonlarni suvsizlik, ochlikdan qutqaradi. Uchar otning yordamida Kenja quyoshga uchib borib, undan ko`p sirlarni bilib qaytadi. Insonlarga ko`maklashadi.

Sehrli-fantastik ertaklarning qahramonlari fantastik , mubolag`ali tarzda tasvirlanadi. Bu qahramonlar sehrli kuch va mo`jizalarga ega, yakka holda dushmanning har qanday kuchini enga oladi. Ular kun, saoti sayin o`sadi, uzoq vaqt uxmlamay yuradi. Agar bir uyquga ketsa, qirq kecha-kunduz uxmlaydi, ko`z ochib yumguncha uzoq masofani bosadi, zo`r ijtimoiy va ma`naviy kuchga ega bo`ladi, aql bovar qilmaydigan yumushlarni bajaradi.

V. Hayotiy-satrik ertaklar. Bunday ertaklarda sehrli-fantastik voqealar o`rnini ko`proq real voqealar egallaydi, hayotiy-maishiy ertaklarning tematikasi xilma-xil bo`lib, ularga sotsial motivlar yorqin va o`tkir ifodalananadi. Hayotiy-maishiy ertaklarda inson huquqlari, tenglik,adolat ochiq himoya qilinadi. Oddiy mehnatkash xalqqa zulm qilgan, uning baxtsizligiga sababchi bo`lgan boylar, podsholar, ruhoniylar hayotiy shaxslar, ekspluatatorlar obrazida beriladi.

Hayotiy-maishiy ertaklarning asosiy qahramonlari kishilarning e'tiborini o`ziga tortmaydigan devona, kal yoki oddiy odam sifatida tasviralanadi. Biroq voqealar

davomida ana shu e'tiborga arzimaydigan obraz tadbirkor, ziyrak, hamma ishning uddasidan chiqadigan kishi sifatida namoyon bo`ladi.

O`zbek xalq ertaklari ichida mehnatkash ommaning vakili sifatida ishtirok etgan kal obrazi ayniqla qiziqarlidir. «Kal botir», «Kal bilan boy» «Kal bilan podsho» kabi o`nlab ertaklar bunga misol bo`ladi.

Hayotiy-maishiy ertaklardagi ijobiy obrazlar mehnatkash ommaning butun ijobiy fazilat va xislatlarini ifodalab, dushmanlarni, to`sqliarni, turli qiyinchiliklarni engib mehnatkash xalqqa yordam beradi. Ular podsho, xon, boy, ruhoniy va savdogarlar bilan yuzma-yuz to`qnashadi, bu to`qnashuvda ular jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham g`olib chiqadi.

Masalan, «Uch og`ayni botirlar» ertagini olib ko`raylik. Bu ertakda xalqning yozuvchilarga qarshi g`azab bilan va nafrati aks ettirilgan. Uch aka-uka obrazi misolida xalq o`zining orzu-istikclarini, adolatparvarlik, gumanizm g`oyalarini ifodalagan. Shuning uchun uch aka-uka har qanday sharoitda ham o`zlarining uddaburonligi, ishbilarmonligi, aql-zakovati bilan g`olib chiqadi.

Uch og`ayni saroya kelgach, podsho sir olish uchun ularning oldilariga dasturxon soldiradi. Ular o`zaro suhbatlashadilar. Suhbat paytida to`ng`ich botir:

- Shu go`sht qo`zining go`shti ekan, biroq shu qo`zi it emib katta bo`lgan ekan,-deydi.

O`rtanchi botir aytadi: - To`g`ri aytasiz, podsho degan it go`shtidan ham qaytmaydi. Men ham shu narsaga hayron bo`lib turibman, mana shu shinnidan odam isi keladi.

Kenja botir aytadi: - To`g`ridir, poshsholik qonxo`rlik demakdir. Qon qo`shilgan bo`lsa ehtimoldan uzoq emas. Lekin yomonning qoni bo`lsa-ku mayli, begunohning qoni qo`shilgan bo`lmasin.

Ko`rinib turibdiki, uch og`aynilari o`z dalillari bilan podsholikni, podsho zulmini fosh qilmoqda.

Hayotiy-maishiy ertaklar asosida hayotiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan masalalar yotadi.

Chunonchi, «Hunarli yigit» ertagida bir yigit o`z hunari, bilimi bilan quduq ostida dev qo`lidan qutilib qoladi, shaxmat o`ynab, podshoning qizini yutadi, o`ziga xotin qilib oladi.

Demak, bu ertakda inson hayoti uchun hunar, ilm kerak degan xulosa kelib chiqadi.

Hayotiy-maishiy ertaklarda to`g`rilik , o`g`rilik ustidan g`olib chiqadi, do`stlik ulug`lanadi, yaxshilik, saxiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xislatlari tarannum qilinadi.

Satirik ertaklarda jamiyatning illatlari, hukmron sinf va ularning zolimliklari ustidan achchiq zaharxanda kulgi beriladi.

Satirik ertaklarning tematikasi podsho va xonlarning zolimligini, ahmoqligini, adolatsizligini, boylarning xasisligini va mehnat ahliga qarama-qarshi bo`lgan tekinox`r o`g`rilarni, ko`knorilarni, folbinlarni, ahmoq mullalarni, ruhoniylarni va shularga o`xshash elementlarni fosh qilishdan iboratdir.

«Xasis boy bilan Abdurahmon o`g`ri» ertagini olib ko`rish mumkin. Bir xasis boyning ming tillasi bo`ladi. Boy bu tillalarni bir bo`z xaltasiga solib, og`zini

mahkam tugib, hech kimga ishonmay, bo`yniga osib yuradi. Boyning Matmusa ismli xizmatkori bo`ladi. Boy unga ko`p azob beradi. Abdurahmon o`g`ri Matmusaning qo`lida ustalik bilan ro`molini olib, boyning uyiga borib tillani olib qo`yadi. Keyinchalik o`g`ri boyga tillalarni qaytaradi. Biroq bir tillasi qoladi. Butun janjal mana shu tilla ustida boradi. Tillani olish uchun boy o`g`rining uyiga borib etib oladi. O`g`ri «o`ladi». Boy qo`madi. O`g`ri tiriladi. Xullas, boy o`g`ridan bir tangasini undiradiyu tinchiydi.

Ko`rinadiki, xususiy boylik to`plash uchun intilgan ekspluatat sinf vakillari kuchli satira, humor orqali fosh etiladi.

Satirik ertaklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularda sotsial tengsizlikka qarshi kurashning hajviy ifodalanishidir. Bunday ertaklarda ezuvchilar qattiq hajv ostiga olinadi. Shuning uchun ham satirik ertaklarni xalq hayotiga yaqin hisoblaydilar Chunki, satirik ertaklarga sotsial konfliktlar, sinfiy ziddiyatlar asos qilib olinadi. Bu xususiyatni «Mamatkal», «boy bilan Novcha», «Zolim podsho», «O`g`ri podsho», «Axmoq podsho», «Qozi», «Ikki mulla» kabi ertaklarda yaqqol ko`rish mumkin.

«Zolim podsho» ertagida mehnatkash xalq podshoning johilligidan kuladi. «Mamatkal» ertagida eshon qo`lida uzoq yillar xizmat qilib, haqini ololmagan Mamatkal bir duo o`qib, Eshonni eshikka yopishtiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og`zaki ijodida ertak janri alohida o`rin tutadi. U o`zining g`oyaviy-badiiy mazmuni, o`tkir badiiy tili, badiiy estetik qimmati bilan xalqning sevimli, ommaviy janri bo`libkelmoqda<sup>12</sup>

## TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. Ertak janri dunyo xalqlarining boy va ommaviy janri deganda nimani tushunasiz?
2. Ertak janrini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlar, olimlar, ularning asarlari haqida ma'lumot bering.
3. Ertaklar tematik jihatdan qanday turlarga bo`linadi?
4. Hayotiy ertaklarga misollar keltiring.

## TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. «Ertaklar orqali hayotni ko`rasan» (P.P.Bakiv) tushunchasini izohlang.
2. Ertaklarning g`oyaviy-tematik jihatdan tasnifi, boyligi.

<sup>12</sup> М.И.Афзалов. «Ўзбек хал<sup>3</sup> эртаклари ма<sup>3</sup>ида» номли монографиясида эртак жанри хусусиятлари, мотивлари, образлар системаси, бадиий ва стилистик томонлари, эртакнинг бош<sup>3</sup>а жанрлар билан ало<sup>3</sup>аси т<sup>2</sup>рисида атрофлича фикр юритган. Шу сабабли биз буда ю<sup>3</sup>оридаги китобни маҳсус адабиёт сифатида тавсия этамиз.

## XALQ QO`SHIQLARI

Ko`shiqlar og`zaki ijodining eng qadimgi janrlaridir. Ularning dastlabki yozma adabiyotdagi namunasi Qoshg`ariyning «Devonu lug`atit turk» kitobida uchraydi. Eng qadimgi davrlarda ham odamlar tabiat kuchlaridan hayratga tushishi, mehnat og`irliliklari, turmush shodliklari muhabbat lazzatini qo`shiqlar bilan ifoda qilganlar.

Shuning uchun xalqda «bir suygan shoir, bir kuygan» degan naql tarqalgan. Bu erda shoir kuylovchi ma`nosida kelgan.

O`zbek xalqi juda qadim zamonlardan beri o`z fikrini she`riy formada ifodalab kelgan. Filolog olimamiz Muzayyana Alaviya haqli ravishda aytgandek: «Qo`shiq termini bir zamonlar she`r ma`nosini ifoda etgan va o`zbeklarda xalq poeziyasi shu termin bilan atalgan va umumlashma termin sifatida ishlatalgan. Qo`shiqlarning bunday keng ma`nosi xalq o`rtasida hozirgacha saqlanib qolgan»<sup>13</sup>.

Qo`shiq termini juda qadimdan ma`lum bo`lib qaysi vaqtida boshlab qo`llanilgani aniq emas. A.Navoyning «Mezonul-avzon» kitobida aytishicha XU asrgacha qo`shiq termini poeziyani ifodalab kelgan. Ba`zi bir manbalarda esa qo`shiq-satrlarni qo`shib tuzishdan olingan ham deyiladi. Qo`shiqlarning eng xarakterli xususiyati uning xalqchilligidir.

**O`zbek qo`shiqlari deyarli to`rtlikdan iborat bo`lib, yaratuvchi xalqning urf-odati, psixologiyasi, milliy xususiyatlarini ifodalaydi.**

Qo`shiqlar uzoq payt saqlanib qolishlari uchun «gul ko`rpa», «zarpech», «palos», palak, belbog`, dasturxonlarning xoshiyasiga yoki gullar orasiga ipak bilan yoziladi.

Masalan: Bo`kalik Qamaroy ismli ayol tashlab ketgan yoriga yuborgan qora sariq belboqqa sariq ip bilan quyidagi satrlarni yozgan:

Subhi damning shamoli  
So`ldirdi gullar bargini  
Kimga aytib, kimga yig`lay  
Bevafo yor dardini

qo`shiqlar inson hayotining hamma etaplarda hamrohdir. Rus yozuvchisi Gogol' shunday deydi: «Qo`shiq bilan g`ishtlar qo`ldan-qo`lgan o`tadi va imoratlar qo`ziqorin singari paydo bo`ladi. Xotinlarning qo`shiqlari bilan rus kishisi yo`rgaklanadi, uylanadi va dafn etiladi».

Qo`shiqlar o`zbekning ona vazni (G.G`ulom) barmoq vaznida yoziladi. O`zbeklarda mashhur bo`lgan yor-yor radifli qo`shiq turi ham borligini A.Navoiy «Mezonul avzon» kitobida keltiradi. Bu tur aruz vaznida to`qiladi.

Qaysi chamandan esib keldi sabo yor-yor,  
Kim damidan tushdi o`t jonim aro yor-yor.

Alisher Navoiy boy merosiga nazar tashlasak bu tur ijodida xalq og`zaki ijodidan unumli foydalanganligini ko`rish mumkin. Hatto Alisher Navoiy orginal asarlari xalq chuqur ma`noligi va yuksak badiiylik jihatdan xalq ijodi bilan hamohang bo`lib ketadi.

<sup>13</sup> М.Алавия. Ӯзбек хал<sup>3</sup> ӡ<sup>3</sup>ши<sup>3</sup>лари. Т., 1959.

O`zbek klassik janrlarini hammasi uchun mushtarak xususiyat bu xalq ijodiga yaqinlikdir. Jumladan HAmza Hakimzoda Niyoziyning revolyutsiyagacha bo`lgan ijodi bilan bog`langandir. Unga to`plab nashr ettirgan gul to`plamlakri xalq tomonidan yaratilgan va Hamza qayta ishlagan turli mavzudagi qo`schiqlar edi. Hamzaning poeziyasi ham vazn e'tibori bir xalq poeziyasiga juda yaqin turadi. Shuni ham ishonch bilan aytish mumkinki, o`zbek adabiyotida birorta iste'dodli shoir yo`qliki xalq ijodida bahramand bo`lmasin.

Qo`schiqlar taxminan quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

**Tarixiy qo`schiqlar.** Ya'ni ma'lum bir tarixiy davrda yaratilgan yoki biror tarixiy shaxslarga atab yaratilgan. (Botirxon zulmi», Jallod, Ming la'nat).

Said Ahmad toleing baland

Toleigdan noming baland

Yigitlarga qo`l quygan

Padaringga ming la'nat.

**Lirik qo`schiqlar.** Bu tipdagи qo`schiqlar odamlarning ichki kechinmalari, og`ir turmushi, muhabbat azoblari kabi motivlar kuylanadi. («Ro`molim») tengsiz nigoh asosida qurilgan oila fojialari ifodalangan)

**Baxshilar ijodidagi terminlar.** (nima aytay, ot ta'rifi, kunlarim).

**Mavsum va marosim qo`schiqlari.** Mavsum qo`schiqlari biror munosabat yoki marosim tufayli yaratiladi va ular ham birnecha turlarga bo`linadi.

A) allalar

B) to`y ashulasi

V) yor-yorlar

G) o`lanlar

D) marsiyalar

E) mavsum qo`schiqlari (Chittigul, oftob chiqdi, Boychechak, Laylak keldi)

Mashhur avar shoiri Rasul Xamzatov barcha qo`schiqlarni uchga bo`ladi.

1. Allalar

2. Marsiyalar

3. Qolgan barcha qo`schiqlar

Ellarda qadimdan uch xil qo`schiq bor.

Ularda g`am ila shodiyonalar

Birinchi quvnoq ko`p jozibador

Buni alla aytib to`qir onalar.

Onalar qo`srig`i ikkinchisi ham,

Buni faryod solib aytadi ular-

Farzand tobutini quchoqlagan dam...

Uchinchisi, jami qolgan qo`schiqlar.

Alla bolaning jiemoniy ulg`ayishi muzikaga bo`lgan qobiliyatini o`sishiga xarakterining mayin, osoyishta bo`lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Allaning bola hayoti uchun ahamiyati haqida Ibn Sino shunday yozadi: «Bolaning mijozini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo`llamoq kerak, biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo`lib qolgan muzika-allalashdir. Shu ikkinchini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bidan

badantarbiyaga va ruhi bilan muzikaga bo`lgan iste'dodi hosil qilinadi. («Tib.qonunlari» P tom).

O`lanlar tarafma-taraf bo`lib aytildi.

O`rik-o`rik ko`zingdan o`rik-o`rik

O`rtanaman, kuyaman seni ko`rib

O`rtanguncha kuyguncha seni ko`rib

Yonboshimda o`tirgin soching o`rib.

Yor-yorlar «Kelin tushdi», «Sunnat» to`ylarida kelin-kuyov tomon yigit-qizlar orasida xuddi laparlar singari bahslashuv tarzida. Ba`zan mehmondorchilik o`tirishlari: bazmlar, qiz-juvonlar, qudalar, kuyoano`karlar (kuyovning yor-do`stlari umuman to`y ishtirokchilarining o`z istak-xohishlari bo`yicha ijro etiladi.

Farg`ona vodiyisida o`lan (yor-yor) bilmaydigan o`zbek bo`lmasa kerak. Yor-yor umumxalq qo`shig`i bo`lishidan tashqari alohida malakali mutaxassislar, so`zga chechan yor-yorchilar tomonidan kelin-kuyov taraflashlari, tortishuv tariqasida ham aytildi. Bu tarafkashlardan asosan kuyov-kelinga madhiyalar o`qilib, ularning yaxshi fazilatlari, xulqi, fe'l-atvori, xarakteri hamda ikki yoshning bir-biriga munosibligi mubolag`ali ravishda maqtaladi va ularga baxt-saodat tilanadi. Ba`zan qiz tomonidagi yor-yorchilar kuyov tomoni, kuyov tomonidagilar esa kelin tomonning ba`zi kamchiliklarini hajv qiladilar.

Yor-yorning «kelin salom qiladi» (Kelinni arava, mashinadan tushirib olib qirib ketayotgan payt) qismida esa, yangalar kuyovning hamma qarindoshlariga yurtu elning boshliq-rahbarlariga kelin salom qildirayotganda, yor-yorning hazil kayfiyati kuchayadi. Yor-yor orasida bu engil, beg`araz hazil (humor)ning aralashuvi tug`ilib o`sgran joyi, ota, ona, dugonalaridan ajralib, yangi – notanish xonodon sharoitiga kelayotganini o`ylab, yig`layotgan kelinchakni yupatish, kuldirib ko`nglini ko`tarish maqsadlari ko`zda tutiladi. Revolyutsiyagacha yaratilgan yor-yorlar kelin-kuyov madhiga aytildigan qo`shiqlardan ko`ra, ko`proq jafokash mazluma kelinchakning orginali qismatiga o`qiladigan marsiyalarga o`xshab ketadi. Bu yor-yorlarning hazil qismi zo`ravonlikka asoslangan notejis nikoh va uning oqibatida ro`y beradigan g`am-kulfatlarni fosh etuvchi o`tkir zaharli kulgiga aylanadi.(149-bet)

**Marsiyalar** marhum yoki marhumaning eng yaqin kishilari: ko`proq ona, egachi-singil, oilasi, farzandlari tomonidan boshlanib taziyaga yig`ilgan ayollarning ko`pchiligi unga jo`r bo`ladi. Shunisi ham borki, maqollarning birida aytilganidek, mma`rakaga kelgan xotin o`z dardini aytib yig`laydi. Marsiyalarda marhum yoki marhumalarning shaxsiy fazilatlari, ro`zg`or va jamiyat orasida tutgan mavqeい, tiriklikda qilgan ish faoliyati eslatilib, unga nisbatan achinish hissi qo`zg`otiladi. Marsiyalarning o`ziga xos mungli ohang-kuyi bor. (221-bet)

Qo`shiqlarning ijodkorlari asosan xotin qizlar bo`lgani uchun ham ularda insonni kamolatga etkazuvchi mehribon, mushafiq jafokash onalar qalbining zabardast. Saxiy, oljanob, aks sadosi jaranglab turadi. Bu holatni ayniqsa ona kuylagan allada yaqqol ko`rish mumkin.

Allalar onalarning jigarband farzandlariga qilgan hasratlaridir. Qadimda allalar inson mehr-muhabbati bilan siynasi to`la onalarning orzu-umid sadolari, vafosiz, zolim erlarga jafokor zamonga, toshmehr ota-onaga bildirilgan g`azab va noroziliklaridan iborat (139-bet)

**Laparlar** Xalq qo`shiqlarining bu turi asosan yigit-qiz o`rtasida ijro qilinadi. Bu jihatdan laparlar o`lanlarga o`xshab ketsalarda, tematika, g`oyaviy mazmuni, vazni va engil musiqiyligi, o`zidagi humor-satira elementlarining o`tkirligi bilan ulardan farq qiladilar. (180-bet) Laparlar savol-javob tarzida yaratilgan. Bu munozara ishq-muhabbat, ro`zg`oridagi totuvsizlik, ota-onalarning farzandlari bilan bo`lgan munosabatlari kabi hodisalar ba`zan engil, ba`zan achchiq kulgi asosida aks ettiriladi. Xalq qo`shiqlarining laparlar turi ham juda ko`p bo`lib, ulardagi vazn, kuy-ohang, musiqiylik xususiyati ham har xildir.

### **OTA**

Bozorga boraymi, qizim,  
Xonatlas olaymi, qizim!

### **QIZ**

Yo`q-yo`q, jon dadajon,  
Asti ochilmaydi gulim!

Yoki

### **KUYOV**

Qiyo-qiyo deganda, qiyalab turgan kelinchak  
Qo`ltig`ining taglaridan mo`ralab turgan kelinchak.

### **KELINCHAK**

Qiyo-qiyo deganda, qiyildim sizga.  
Qizil gulning navdasidek egildis sizga.

Qo`shiqlarning ko`pchilik qismida asosan mehnat kuylandi.

Quyosh chiqar mo`ralab  
Paxta gulini tarab  
Zavqim oshib ketadi.  
O`z mehnatimga qarab.

Ulug` Vatan urush yillarida yaratilgan qo`shiqlarda esa yovuzga, dushmaniga qarshi kurash umumxalq ishiga aylanganligi va muqarrar g`alabaga bo`lgan ishonch kuylandi.

O`rdaklar ko`lga tushdi  
Yigitlar yo`lga tushdi  
Xursand bo`ling o`rtoqlar  
Dushmanlar qo`lga tushdi.

Urushdan keyingi yillarda esa fashizm ustidan qozonilgan g`alaba xalqlar do`stligi, yangi texnik progress xalq qo`shiqlarining asosiy temasi bo`lib qoldi.